

BELARUS-O'ZBEK

ILMIY-METODIK JURNALI

Белорусско-Узбекский научно-методический журнал
Belarusian-Uzbek scientific and methodological journal

Muassis:
GRI tadqiqot instituti

2024
5-son

Jurnal 2021-yil iyul oyidan chiqa boshlagan

O'zMAA tomonidan 2021-yil 3-sentabrda ro'yxatga olinib, 1157-raqamli guvohnoma berilgan, 15 iyul 2024 yil №320109-sonli guvohnoma asosan jurnal muassisi GRI tadqiqot instituti belgilangan.

Свидетельство о государственной регистрации №1157 от 09.03.2021 выдано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента РУз.

OAK Rayosatining 2023 yil 30 sentabrdagi 343/2-son qaroriga asosan PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy natijalar bo'yicha dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

В соответствии с постановлением Президиума ВАК №343/2 от 30 сентября 2023 года журнал включен в список национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций на соискание ученых степеней докторов философии (PhD) и докторов наук (DSc) по педагогическим наукам

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal
Международный научно-методический журнал
International scientific and methodical journal

TOSHKENT

MUNDARIJA

Парпиева Малика Моминовна АУТОПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИКНИНГ МАХСУС БИЛИМЛАРНИ ЎЗЛАШТИРИШГА НИСБАТАН ТАЪСИРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ	4
Djo'rayeva Shaxnoza Shakirjanovna GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI TA'LIM MAZMUNI RIVOJLANTIRISHDA DARS MASHGULOTLARIGA QO'YILADIGAN METODIK-PEDAGOOGIK TALABLAR	11
Djalgashova Qurbonoy TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK IMKONIYATLAR VA MUAMMOLI MASALALAR	18
Каюмов Бахтиёр Ишбаевич СВОЕОБРАЗИЕ СОЗДАНИЯ УЧЕБНОГО ПОСОБИЯ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ ТЕХНИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ	22
Maxmudova Mashhura PEDAGOGIK FAOLIYATNI PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA, KREATIV PEDAGOGIKA, KORREKSION PEDAGOGIKA KABI FANLAR INTEGRATSIYASIDA TASHKIL ETISH	27
Masharipova Nodira Raxmanovna GRAMMATIK TUSHUNCHALARNI O'ZLASHTIRISH JARAYONI JAHON TAJRIBALARI MISOLIDA (ANGLIYA)	31
Nimatova Moxinur Sobit qizi “МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ” YO'NALISHI TALABALARIGA MUSTAQIL TA'LIM VA O'QUV TOPSHIRIQLARINI BERISH ORQALI LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ...	37
Yakubboyeva Nafisa Saxobiddinovna XALQARO TADQIQOT DASTURLARI DOIRASIDA ANIQ VA TABIIY FANLARNING I NFORMATIKA BILAN ALOQADORLIGI	44
Нормуродова Бибинор Абдувохидовна КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯСИДА ХАЛҚ МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАРИ АСОСИДАГИ МЕХНАТ ТАРБИЯСИНИНГ ЎРНИ	49
Pardaboyeva Dilnoza G'aybullayeva qizi BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHGA ASOSLANGAN INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	57
Samandarova Muhayyo Qaxramon qizi KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MEKANIZMI	63
Smetova Jumabiyke Hamidullayevna FANLAR UCHUN MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI TUZISH USULLARI	70
Talipova Kamola Nigmatillayevna МАКТАВ О'ҚИТУВЧИЛАРИДА КАСБИЙ STRESSLI HOLATLARDA BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLAR	74
Xoliqova Ra'no Musurmon qizi 5-6-SINIF ONA TILI TA'LIMIDA ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИ МАСАЛАСИ	79
Выборнов Сергей Ахтямович ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ РОБОТОТЕХНИКА: ВВЕДЕНИЕ МОЛОДЕЖИ В МИР ТЕХНОЛОГИЙ БУДУЩЕГО	83
Хашимова Махсуда Комилжоновна ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ	89
Anvarova Zilola Qosimovna TALABALARNING TIBBIY BILIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA KLINIK FANLARNI METODIK O'QITILISHI	96

Kadirova Xurshida Abdخالilovna NEYROTEKNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM JARAYAONIDA O'QUVCHILAR MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARII	102
Хубиева Камилла Рафаэльевна ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ 3D МОДЕЛИРОВАНИЯ: МЕТОДИКИ И ТЕХНОЛОГИИ	106
Abdinazarova Zamira Xudayberganovna KASBIY SHAKLLANISH SHAXS TARAQQIYOTIDA MUHIM OMIL	110
Ильхомов Икболжан Сиддикович КАМОЛИДДИН БЕҲЗОД – ГЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА	114
Исмадияров Яшин Уткирович ПОДХОДЫ К КАДРОВОЙ ПОЛИТИКЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	119
Арипджанова Альфия Равильевна ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ КРЕАТИВНОСТИ ПЕДАГОГОВ.....	126
Матназарова Мехрибон Бахтияровна МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	131
Рахиммирзаев Санжар Ботурович ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ БЛАГОПОЛУЧИЯ СОТРУДНИКОВ КОМПАНИЙ.....	137
Ильхомов Икболжан Сиддикович КАМОЛИДДИН БЕҲЗОД ИЖОДИДА КАМАЛАКНИНГ ЕТТИ ЖИЛОСИ.....	144
Davronova Makhliyo Narzullaevna THEORETICAL COMPETENCIES OF THE DEVELOPMENT OF SPEECH THINKING IN UPPER-CLASS STUDENTS	151

АУТОПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИКНИНГ МАХСУС БИЛИМЛАРНИ ЎЗЛАШТИРИШГА НИСБАТАН ТАЪСИРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ

Парпиева Малика Моминовна

“Педагогика” кафедраси в/б доценти, п.ф.ф.д (PhD)

Тошкент амалий фанлар университети

Аннотация. Ушбу мақолада талабаларнинг касбий тайёргарликда аутопедагогик компетентлик кўрсаткичлари, ОТМ талабаларининг “Халқ хунармандчилиги” фани бўйича билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштирганлик даражалари, акмеологик ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш даражасини аниқлашда махсус фанларни ўзлаштириш миқдорининг сифат ўзгариши кўрсаткичларини таҳлил қилинганлиги ёритиб берилган.

Калит сўзлар: аутопедагогик компетентлик, касбий тайёргарлик, акмеологик ёндашув, махсус билимлар, махсус фанлар.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ АУТОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА ПРИСВОЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ

Парпиева Малика Моминовна

И.о. доцент, д.ф.п.н (PhD) кафедры «Педагогика»,

Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация. В статье освещены показатели аутопедагогической компетентности студентов при профессиональной подготовке, уровни знаний, умений и компетенций студентов высших учебных заведений по предмету «Народные промыслы», показатели качественного изменения объема освоения, специальных предметов при определении уровня подготовки студентов к профессиональной деятельности на основе акмеологического подхода.

Ключевые слова: аутопедагогическая компетентность, профессиональная подготовка, акмеологический подход, специальные знания, специальные предметы.

RESEARCH OF THE INFLUENCE OF AUTOPEDAGOGICAL COMPETENCE ON THE ACQUISITION OF SPECIAL KNOWLEDGE

Parpieva Malika Mominovna

Acting Associate Professor, Doctor of Philology (PhD),

Department of Pedagogy, Tashkent University of Applied Sciences

Abstract. The article highlights the indicators of autopedagogical competence of students during professional training, the levels of knowledge, skills and competencies

of students of higher educational institutions in the subject “Folk Crafts”, indicators of qualitative changes in the volume of mastery, special subjects when determining the level of preparation of students for professional activities based on the acmeological approach.

Key words: autopedagogical competence, professional training, acmeological approach, special knowledge, special subjects.

Бўлажак ўқитувчиларда аутопедагогик компетентликнинг шаклланишини педагогик-касбий йўналтирилган ўқитиш тизимида акмеологик ёндашув асосида ташкил этишда таълим самарадорлигини ошириш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим бўлади:

- ўқитиш соҳасида – талабаларнинг ўқув билиш фаолияти ва педагогик-психологик ҳамда касбга оид махсус билимларни ўзлаштириши;
- ўзини-ўзи англаш соҳасида – ўзининг индивидуал касбий фаолияти имкониятини англаш, онгли равишда фуқаролик хулқ-атворини такомиллаштириш;
- мотивация соҳасида – мутахассислик йуналишига оид махсус фанларга қизиқишни, касбий билимларга доимий эҳтиёжни ривожлантириш;
- касбий соҳада – касб сирларини ўзлаштириш, битирувчиларни иш билан таъминлаш муаммосини ечиш ва уларнинг ҳозирги замон талабига мослашишига эришиш.

Тадқиқотнинг педагогик тажриба-синов ишларини амалга ошириш қуйидаги босқичларда амалга оширилди: 1) ўрганувчи-тасдиқловчи босқич (2018-2019 йй.)да бўлажак ўқитувчиларда аутопедагогик компетентликнинг шаклланишини акмеологик ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш муаммосига доир фалсафий, психологик, педагогик ва акмеологик адабиётлар таҳлил қилинди; 2) тасдиқловчи босқич (2019-2020 йй.)да республикада фаолият олиб бораётган педагогик ОТМларининг фаолияти, жумладан, талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида аутопедагогик компетентликни шакллантириш, касбий билимларини шакллантириш йўлида олиб борилаётган амалий ҳаракатлар мазмуни ўрганилди; тадқиқот мавзуси доирасидаги педагогика, психология, акмеология, ахборот технологиялари ва энергетикага оид адабиётлар ҳамда илмий ишлар, анъанадаги бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёни ўрганилди; технологик таълим йўналиши ўқув-тарбиявий жараёнларига тегишли ўқув предметларининг янги намунавий ўқув дастурлари ишлаб чиқилди ва уларнинг мазмунига тадқиқот ғояси сингдирилди; “Халқ хунармандчилиги” номли дарслик яратилди; таълим-тарбия жараёнида акмешахс мутахассисни шакллантиришга қаратилган акмеологик ёндашув компонентларини (акмеологик ташкилий-услубий ишлар, акмеологик касбий тарбия, акмеологик касбий таълим) такомиллаштиришнинг педагогик-психологик шарт-шароитларини жорий этиш механизми, бўлғуси мутахассисларда касбий компетентлик тамойили, ўқитишда компьютер технологиялари, iSpring дастуридан фойдаланиб яратилган электрон ўқув контент илмий-амалий тадқиқ қилинди; 3) тажрибавий-умумлаштирувчи босқич (2020-2021 йй.)да “Халқ хунармандчилиги” фанини ўқитишда таълимнинг педагогик-психологик-акмеологик вазифалари интеграциясини таъминлаш асосида мунозарали акметехнология, ривожлантирувчи акметехнология, тренингли акметехнология ва ўйинли акметехнологияларни қўллаш методикалари, жумладан, мунозарали акметехнологиянинг ўйинли методлари қўлланилди.

Педагогик тажриба-синов ишларининг натижаси, шунингдек, компьютер технологиялари ва акмеологик технологиялар уйғунлигида акмеологик ёндашув асосида касбий йўналган ўқитиш тизимида “Халқ хунармандчилиги”

фанини ўқитишда таълимнинг педагогик-психологик-акмеологик вазифалари интеграциясини таъминлаш асосида мунозарали, ривожлантирувчи тренингли ва ўйинли акметехнологияларни қўллаш методикалари ҳамда акмеологик йўналган таълим-тарбияга қаратилган жараённинг самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи методик тавсиялар ишлаб чиқилди.

Тадқиқот жараёнида қўлланилган акметехнологиялар, методикалар, компьютер технологиялари, электрон ўқув контент натижаларининг самарали жиҳатлари 2018-2021 йилларда ўрганилди.

Акмеологик касбий йўналганлик шароитида аутопедагогик компетентликка эришиш учун акметехнологиялар ва компьютер технологиялари уйғунлигида ўқитиш ташкил этилганда кўрсаткич 26,9 % ни ташкил этган, тажриба бошига нисбатан яъни 6% га ошган. Демак, талабаларда ўз-ўзига ишонч, ўзи-ўзини ривожлантириш, мустақил фикрлаш, билиш даражаси, касбий аутопедагогик компетентлигини шакллантириб ва ривожлантириб бориш билан келгусида уларнинг меҳнат фаолияти натижавийлигига эришиш мумкин экан. Тадиққотнинг асосий ва тажрибавий босқичларида олиб борилган ишлар якунида тажриба-синов ва назорат гуруҳлари талабаларининг қуйидаги кўрсаткичларидан ҳам бунга ишонч ҳосил қилиш мумкин (1-жадвал).

1-жадвал

Талабаларнинг касбий тайёргарликда аутопедагогик компетентлик кўрсаткичлари

т/р	Касбий тайёргарликда аутопедагогик компетентлик кўрсаткичлари	Тажриба-синов гуруҳи, %		Назорат гуруҳи, %	
		Тажриба-синов бошида	Тажриба-синов якунида	Тажриба-синов бошида	Тажриба-синов якунида
1	Касбий мустақил фикрлаш	53,2	74,2	55,2	60
2	Касбий рефлексия	59,9	75,9	60,3	65
3	Касбга қизиқиш	74,9	86,9	75,6	80,6
4	Касбий қобилият	63,2	74,2	67,2	70,2
5	Эмпатия	52,9	83,9	53,1	58,1
6	Касбга ижодий ёндашиш	51,5	74,5	52,8	54,8
	Умумий	59,3	78,2	60,7	64,8

1-жадвалда, талабаларнинг касбий тайёргарликда аутопедагогик компетентлик кўрсаткичлари ОТМ битирувчиларидаги касбий тайёргарлик даражаларини аниқлаш мақсадида акмеологик-психологик тестлар ёрдамида: битирувчиларнинг касбий фикрлаши, ўз касбини севиши, касбга қизиқиши, касбий қобилияти, эмпатия, касбга ижодий ёндашиш кўрсаткичлари бўйича натижалар олинди.

Тажриба гуруҳи ва назорат гуруҳи ўртасидаги кўрсаткичлар фарқи: тажриба-синов гуруҳи талабалари умумий сонининг 74,2 %, назорат гуруҳининг 60 % да касбий фикрлаш кўрсаткичига эришганлиги бу назорат гуруҳидан 14,2% га, шунингдек, касбни севиш-10,9% касбга қизиқиш- 6,3%, касбий қобилият - 4%, эмпатия - 25,8%, касбга ижодий ёндошиш-19,7%, умумий 13, 4 %га фарқ қилиши аниқланган натижаларда ўз ифодасини топган.

Демак, акмеологик ёндашув асосида касбий фаолиятга тайёргарлик, яъни акмеологик йўналган таълим-тарбияни амалга ошириш, инновацион педагогик

жараён, акметехнологиялар, интерактив таълим методлари, компьютер технологиялари, электрон ўқув контентнинг қўлланилиши ёрдамида касбий тайёргарлик кўрсаткичларида ижобий ўзгаришга эришиш мумкинлигини тажрибалар кўрсатди.

Педагогик инновация, акмеологик ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш модели асосида замонавий таълим технологиялари жорий этилди, ОТМда бўлажак технология фани ўқитувчиларини тайёрлаш таълимига интерактив усуллар, акмеологик ёндашув асосида “Халқ ҳунармандчилиги” фанини ўқитишда касбий-акмеологик йўналганликни таъминлаш, талабаларда креативлик, ижодий фикрлашни шакллантиришда қўлланган янги методлар, жумладан, касбий ва амалий мазмундаги топшириқ ва масалаларни ечиш, махсус фанларни ўқитишда акмеологик ёндашув асосида касбий йўналганликни таъминлаш муҳим аҳамиятга эга эканлигини тасдиқлади. ОТМда “Халқ ҳунармандчилиги” фанидан Давлат таълим стандартларига қўйилган талаблар тўлиқ бажарилиши, яъни талабалар фанини ўқиб тугатгандан сўнг юқори даражада билим ва кўникмаларга эга бўлиши тажриба-синовларда аниқланди.

Юқорида келтирилган талабларнинг бажарилишини таъминлаш таълим жараёнини замонавий ташкил этишда таълимнинг мақсад, метод, шакл ва воситалари таълим жараёнига акмеологик, STEAM ёндашувини қўллашга қаратилган таълим методларининг амалий натижалари ва бошқа махсус фанлар бўйича мавзуларни ўзлаштириш каби натижаларнинг барчаси электрон шаклда умумлаштирилди ва асосан кўрсаткичлар аниқланди ҳамда қуйидагича мезонланди:

1. 60% дан 70% гача – “Паст даража”.
2. 80% дан 89% гача – “Ўрта даража”.
3. 90%дан 100% гача – “Юқори даража”.

ОТМ талабасида “Касбийлашув”, “Моҳирлик” ва “Эътиборли, мўтабар, етарли маълумотга эга” муҳим субъект-ли-шахсий фаолият характеристикаларидан бири бўлган бу тушунчалар тўғридан тўғри акмеология предметига жавоб берувчи, юқори сифатли ва даражали фаолиятни бажариш мезони ҳисобланади. Талабанинг касбий аутопедагогик компетентлигини технологик таълим йўналиши махсус фанларини атрофлича билиши, бажараётган ишининг мураккаблиги, мавжудлиги, аниқлиги, унда мавжуд мураккаб алоқалар, муносабатлар, кўзланган мақсадга эришишининг усуллар ва воситалари имкониятлари аниқланди. Шунингдек, касбий аутопедагогик компетентлик, когнитив, психомотор, эмоционал шаклланганлик, шахснинг ўзига хосликлари, ўз-ўзини намоён этувчи креатив қобилиятни шакллантириш тренинглари, талаба акмеограммаси, индивидуал дастур асосида касбий фаолиятга йўналганлик, онгли мотивация ва билиш фаоллиги, зарурий касбий тайёргарлиги, яъни махсус фанларни ўзлаштириш кўрсаткичлари педагогик-психологик усулларда баҳоланди ва умумий натижалар аниқланди.

Талабаларнинг касбий тайёргарлиги самарадорлиги даражаси:

а) махсус фанларни ўқитиш самарадорлигини ошириш орқали билимларни ўзлаштириш;

б) касбий фаолиятга тайёргарлик кўрсаткичлари орқали аниқланди.

Ҳар икки мезоний кўрсаткичлар таълим самарадорлигини ошириш даражасининг асосий кўрсаткичлари сифатида қараб чиқилди.

Тажриба-синов ишининг биринчи босқичида ОТМлари талабаларининг “Халқ ҳунармандчилиги” фани бўйича билим, кўникма ва малакаларини назарий-амалий жиҳатдан ўзлаштирганлик даражалари тажриба гуруҳларида жами 370 нафар талабанинг 111 таси юқори, 137 таси ўрта ва 122 таси паст ўзлаштириш кўрсаткичи аниқланди. Назорат гуруҳларида эса, жами 356 нафар талабанинг 79 таси юқори,

142 таси ўрта ва 135 таси паст ўзлаштириш кўрсаткичи аниқланди (2-жадвал).

2-жадвал

ОТМ талабаларининг “Халқ ҳунармандчилиги” фани бўйича билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштирганлик даражалари

№	Бўлажак бўлғуси мутахассисларнинг касбий билимларни ўзлаштирганлик босқичлари	Ўзлаштириш даражалари					
		Тажриба гуруҳларида $n_1 = 370$			Назорат гуруҳларида $n_2 = 356$		
		юқори	ўрта	паст	юқори	ўрта	паст
1.	Назарий-амалий	111	137	122	79	142	135

Тажриба-синов ишининг иккинчи босқичида ОТМ талабаларининг “Халқ ҳунармандчилиги” фани бўйича билим, кўникма ва малакаларини амалий-ижодий жиҳатдан ўзлаштирганлик даражалари аниқланди. Бунда талабаларнинг (2-жадвал, 3-жадвал, 4-жадваллар асосида) фанни ўзлаштиришда билим, амалий кўникма ва ижодий малакаларни (мустақил мушоҳада, фикр, ғоя каби) ўзлаштирганлик даражаси аниқланди (3-жадвал).

3-жадвал

ОТМ талабаларининг “Халқ ҳунармандчилиги” фани бўйича билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштирганлик даражалари

№	Бўлажак бўлғуси мутахассисларнинг касбий билимларни ўзлаштирганлик босқичлари	Ўзлаштириш даражалари					
		Тажриба гуруҳларида $n_1 = 370$			Назорат гуруҳларида $n_2 = 356$		
		юқори	ўрта	паст	юқори	ўрта	паст
1.	Амалий-ижодий	124	172	74	79	149	128

3-жадвалда талабаларнинг касбий билимларни ўзлаштириш босқичида касбий-ижодий билимдонлиги, уларнинг билиш жараёнларининг мустақил-ижодий фикрлашлари ишлаб чиқариш таълимида мустақил таълим топшириқларини бажаришини баҳолаш ёрдамида аниқланди.

Тажриба-синов ишининг учинчи босқичида ОТМ талабаларининг “Халқ ҳунармандчилиги” фани бўйича билим, кўникма ва малакаларини амалий-таҳлилий жиҳатдан ўзлаштирганлик даражалари аниқланди (4-жадвал).

4-жадвал

ОТМ талабаларининг “Халқ ҳунармандчилиги” фани бўйича билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштирганлик даражалари

№	Бўлажак бўлғуси мута-хассисларнинг касбий билимларни ўзлаштирганлик босқичлари	Ўзлаштириш даражалари					
		Тажриба гуруҳларида $n_1 = 370$			Назорат гуруҳларида $n_2 = 356$		
		юқори	ўрта	паст	юқори	ўрта	паст
1.	Амалий - таҳлилий	169	164	37	90	141	125

4-жадвалда талабаларнинг касбий билимларни ўзлаштириш босқичида амалий-таҳлилий билимдонлиги, уларнинг билиш жараёнларида таҳлилий фикрлашлари, махсус фанни ўзлаштириши, ишлаб чиқариш таълими жараёнида таълим лойиҳаларини бажариши ва ўзини-ўзи баҳолаши, лойиҳа топшириғини бажарганликда ўз хатоларини ўзлари топиши, ўзидаги фанни ўзлаштириш жараёнидаги камчиликларни ўзи англаб етган ҳолда ўзини-ўзи баҳолаши, фанларни ўзлаштириш даражалари аниқланди.

Учинчи босқичдаги кўрсаткичлар ОТМ талабаларида билимларни ўзлаштиришнинг амалий-таҳлилий босқичида натижаларни яхшилаш кўрсаткичларини ошириш учун қилинадиган ишлар кўп эканлигини кўрсатди. Юқоридаги жадвалда махсус фанларни ўқитиш самарадорлиги ҳамда касбий фаолиятга тайёргарликни ошириш ҳолатига мувофиқ кўйидаги тарзда мезонланди: касбий билимларни “3”баҳога ўзлаштирганлар – “паст даража”, “4” баҳога ўзлаштирганлар – “ўрта даража”, “5” баҳога ўзлаштирганлар - “юқори даража” деб белгиланди.

Амалга оширилган тажриба-синов ишлари натижаларини 2-жадвал кўрсаткичлари асосида махсус фанларни ўқитиш самарадорлиги ва акмеологик ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш даражасини ошириш тажриба-синовгача бўлган даврда ўтказилган тажриба ва назорат гуруҳларидаги ўзлаштиришларини умумий ҳолда статистик таҳлил қиламиз. Акмеологик ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш даражасининг миқдор ва сифат ўзгаришлари кўрсаткичлари натижаларини умумий ҳолда қўйидаги 5- жадвалда ифодалаймиз:

5-жадвал

Акмеологик ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш даражасини аниқлашда махсус фанларни ўзлаштириш миқдорининг сифат ўзгариши кўрсаткичлари

Гуруҳлар	Талабалар сони	Ўзлаштириш даражалари		
		Юқори	Ўрта	Паст
Тажриба гуруҳи	370	169	164	37
Назорат гуруҳи	356	90	141	125
Жами:	726	159	305	162

5-жадвалда келтирилган акмеологик ёндашув асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш даражаси кўрсаткичлари ҳаққонийлигини аниқлаш мақсадида математик-статистик таҳлилнинг Стъудент-Фишер методи бўйича амалга оширдик.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Парпиева М.М. Бўлажак ўқитувчиларда касбий аутопедагогик компетентликни ривожлантириш/ Журнал. “Халқ таълими” - Тошкент, 2022. - №1. 34-38 бет.

2. Parpieva M.M. Improvement of Autopedagogic Competence/ An American scientific journal. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Volume 4, January, 2022. Impact Factor: 5.392. page 102-105.
3. Райцев А.В. Развитие профессиональной компетентности студентов в образовательной системе современного вуза: Дисс...д-ра п.н. – Спб., 2004. – 309 с.
4. Садовская Е.А. Формирование профессиональной компетентности будущих преподавателей-исследователей университета: Дисс...к.п.н. – Оренбург, 2005. – 225 с.
5. Тиллаева Г.Ҳ. Акмеология асослари: Ўқув қўлланма // Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. - Т.: «Тафаккур бўстони», 2014. —192 б
6. Шиян О.М. Аутопедагогическая компетентность учителя // Педагогика. –1999. – №1. – С. 63.
7. Шиян О.М. Продуктивное развитие аутопедагогической компетентности учителя: Авт. дисс...д.п.н. – М., 1996. – 42 с.
8. Юсупова Р.М. Аутопедагогическая компетентность как составляющая педагогического мастерства учителя// Научный сборник. - М.:МГПИ, 2010 г. - С.45-48.

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI TA'LIM MAZMUNI RIVOJLANTIRISHDA DARS MASHGULOTLARIGA QO'YILADIGAN METODIK-PEDAGOOGIK TALABLAR

Djo'rayeva Shaxnoza Shakirjanovna

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarga ona tilini o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslari, hermenevtik yondashuv, ona tilining ta'lim mazmunida tutgan o'rni, ona tilining har bir sathi doirasida talabalarga beriladigan BKMlar majmuasi, innovatsion pedagogik-metodik faoliyatining nazariy asoslariga oid nazariy bilimlarni o'quv topshiriqlari ustida ishlash, talabalar bilan ona tili ta'lim mazmuni metodikasiga oid amaliyotini to'liq o'zlashtirishlariga erishish, ona tili ta'lim mazmunida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga doir hermenevtik ta'limot o'z aksini topgan.

Tayanch sozlar: til, tafakkur, uzviylik, so'z, vosita, mahsul, moddiy borliq, o'quv jarayoni, til birligi, nutq, talaba, hermenevtik ta'limot, o'zlashtirish, tilni ijtimoiy hodisa, sifat, tanishtirish, muhim ahamiyat, ona tili ta'lim mazmuni, ilmiy dunyoqarash, aniq tushunish, yordam berish.

МЕТОДИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К УРОКАМ ПО РАЗРАБОТКЕ СОДЕРЖАНИЯ ОБУЧЕНИЯ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ НА ОСНОВЕ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Джураева Шахноза Шакиржановна

Ташкентский университет прикладных наук, старший преподаватель кафедры педагогики

Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассмотрены методы и методы обучения студентов родному языку, их теоретические основы, герменевтический подход, роль родного языка в содержании обучения, комплекс БКМ, даваемых студентам на каждом уровне родного языка, теоретические основы инновационной педагогической и методической деятельности, герменевтическое учение о работе со знаниями над учебными задачами, достижение полного овладения практикой, связанной с методологией содержания родного языка с обучающимися, развитие научного мировоззрения в содержании образования на родном языке было отражено.

Ключевые слова: язык, мышление, связность, слово, инструмент, продукт, материальная сущность, процесс обучения, языковая единица, дискурс, ученик, герменевтическое учение, усвоение, язык как социальное явление, качество, внедрение, важное значение, образовательное содержание узбекского языка, научный кругозор, ясное понимание, помощь.

METHODOLOGICAL AND PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR LESSONS ON DEVELOPING EDUCATIONAL CONTENT IN THE NATIVE LANGUAGE BASED ON THE HERMENEUTIC APPROACH

Juraeva Shakhnoza Shakirzhanovna

*Tashkent University of Applied Sciences, Senior Lecturer, Department of Pedagogy
Tashkent, Uzbekistan*

Abstract. This article discusses the methods and methods of teaching students their native language, their theoretical foundations, the hermeneutic approach, the role of the native language in the content of training, the complex of BKM given to students at each level of their native language, the theoretical foundations of innovative pedagogical and methodological activities, the hermeneutic doctrine of working with knowledge on educational tasks, achieving complete mastery of practice related to the methodology of the content of the native language with students, the development of a scientific worldview in the content of education in the native language was reflected.

Keywords: language, thinking, coherence, word, tool, product, material entity, learning process, uzbek language unit, discourse, student, hermeneutic teaching, acquisition, language as a social phenomenon, quality, introduction, important importance, uzbek language educational content, scientific outlook, clear understanding, help.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "...ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish" alohida ta'kidlangan. Zero modul-kredit ta'limida mustaqil ta'lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi. Respublikamizda bo'lajak ona tili o'qituvchilari uchun Ona tili o'qitish metodikasi fanini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida fan bo'yicha qo'yilgan o'quv materiallari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, amaliy ishlar talabalar tomonidan individual tarzda bajariladi. Ona tili ta'limining ilmiy-metodik asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay oladi. Bo'lajak ona tili o'qituvchilarga modul-kredit tizimini keng joriy etish, yangi Renessans poydevorini qurishda, pedagogik va metosik shart-sharoit talabalarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ona tili o'qitish metodikasiga oid kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni metodik rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko'zda tutilgan. "Ona tili o'qitish metodikasi" fani metodik kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomilashishiga olib kelish ko'zda tutilgan.

Ona tili o'qitish metodikasida o'rganishga qo'yilgan aniq malaka talablari asosida (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) ko'nikmalari metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatib turibdi. Bu esa, o'qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, pedagogic-didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 22 oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari hamda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 29–arredagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5712–son va 2020–yil 27–fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi RQ–4623–son Qarorlari, 2020–yil 6–iyuldagi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60–sonli, Farmon hamda ona tilini yanada rivojlantirish

va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida”gi qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Ona tili ta’lim mazmunini takomillashtirishda jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning metodistlar oldiga qo’ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko’p qirrali bo’lib, ularni bajarish talabalar ongini o’stirishga, ularga g’oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo’naltirilgan.

Ona tili ta’lim mazmuning o’rgatish natijasida talabalarda o’z fikrini grammatik to’g’ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to’g’ri yoza olish ko’nikmalaririvojlantiradi. Bu vazifa o’quv predmeti sifatida ona tilining o’ziga xos xususiyati bo’lib, talabani shaxs sifatida rivojlantirishga yo’naltirilgan metodik vazifalari bilan bog’liq holda amalga oshiriladi. Ona tili ta’lim mazmunida beriladigan bilimlar mazmunini ona tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so’zlarning o’zgarishi va gapda so’zlarning bog’lanishi haqidagi (grammatik, ya’ni morfologik va sintaktik); so’zning morfemik tarkibi va so’z yasaliş usullari haqidagi (so’z yasalişiga doir); so’zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); ona tilining to’g’ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so’z yasalişiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo’ladi. Bundan tashqari, ona tili ta’lim mazmuning fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko’nikma va malakalarni ham o’z ichiga oladi. Tilni o’rganish jarayonida talabalarda boshqa ko’pgina o’quv predmetlari uchun umumiy boigan ko’nikmalar (predmetlararo ko’nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko’nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko’nikmalarni talabalarda germenevtik ta’limot asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq ishlash ularning o’quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi.

Ona tili ta’lim mazmunida hosil qilinadigan maxsus ko’nikmalar bilan predmetlararo ko’nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o’quv-tarbiyaviy jarayonda rivojlantiriladi. Beriladigan germenevtik ta’limot asosidagi bilim talabalarda hosil qilinadigan maxsus ko’nikmalar fan dasturlari, sillabuslar va davlat ta’lim standartida qayd etilgan. Ona tili ta’lim mazmunini ongli egallashga 1-2 kurs bosqichlarida talabalarda grafik va imloviy malakalarni rivojlantirishga zamin bo’ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida talabalar so’zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o’ziga xos xususiyatlarini, so’zda tovushning ma’noni farqlashdagi ahamiyatini to’g’ri tushunishga imkon beradigan germenevtik ta’limot asosidagi bilimlarni o’zlashtiradilar, shuningdek, ularga so’zning tovush va grafik shakli o’rtasidagi nisbat (bog’lanish)ni ongli aniqlash, so’zni to’g’ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham so’zni ongli o’zlashtirish, uni to’g’ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo’lgan bilimlar tanlangan. Talabalar 1-bosqichdan boshlab so’z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe’i)ni har xil saviyada o’rganadilar.

Sintaksisdan fan dasturiga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so’zlarning bog’lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo’laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So’zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so’zda bir-biriga ta’sirini talabalar tushunadigan va so’zlarni to’g’ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo’lgan hajmda ma’lumot berilgan. Dasturda, "Leksika" bo’limi alohida berilmagan, ammo talabalar so’zlarning leksik-semantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik ma’nolari haqida so’z turkumlari va so’z tarkibini o’rganish jarayonida ma’lumot oladilar.

Germenevtikaning ildizlari qadim G'arb va Sharq madaniyatiga borib taqalsa- da, XIX asrga kelibgina alohida fan sohasi sifatida shakllangan bo'lib, u nemis faylasuflari F.Shleyermaxer va V.Dilteylar faoliyati bilan bog'liq. Bu yondashuvning keyingi rivojida M.Xaydegger, G.G.Gadamer. P.Rikyor, M.Baxtin singari olimlarning xizmati katta bo'ldi. Germenevtikaning markazida tushunish masalasi turadi. Jumladan, F.Shleyermaxer Germenevtika umuman yozma manbalarni "tushunish san'ati haqidagi ta'limot", deb biladi. Unga ko'ra, har qanday yozma manba (matn) ikkiyoqlama tabiatga ega: bir tomondan, u til tizimiga nisbatan qism, ikkinchi tomondan, muayyan bir individning ijod mahsulidir. Shuning uchun Germenevtika oldida bir-biriga bog'liq ikkita vazifa turadi: birinchisi - matndagi lisoniy ifodani muayyan til tizimining uzvi sifatida o'rganish ("grammatik" talqin), ikkinchisi - uning ortida turgan betakror subyektni anglash ("psixologik" talqin). V.Diltey o'zining "hayot falsafasi"da Gadamerga bilish nazariyasining xususiy tomoni emas, balki gumanitar fanlar ("ruh haqidagi fanlar")ning asosi sifatida qaradi. Zero, unga ko'ra, tushunish hayot atalmish butunlikni adekvat ifodalashning yagona vositasi bo'lib, u tufayli hayotni idrok etish mumkinligini isbotladi.

M.E.Axmedovaning ta'kidlashicha, har qanday individning ijod mahsuli hayotni obyektivlashtirishdan boshqa narsa emas; inson o'zga shaxsda ham o'zida tushuna olgan narsani tushunadi. Shu tariqa hayot idrok etuvchining (tushunayotgan shaxs) tushunchasiga monand bo'ladi. Gadamerning falsafaga aylanishi M.Xaydegger nomi bilan bog'liq bo'lib, u "tushunish"ni bilish emas, mavjudlik usuli deb qaradi. Adabiyotshunoslik uchun falsafiy germenevtikadan ko'ra an'anaviy tushunchadagi, ya'ni matnni talqin qilish ("tushunish") nazariyasi sifatidagi germenevtika muhimroq. Insonning borliqqa munosabati, uni bilishi, qanday muhitda, sharoitda yashashi, ishlashi kabi omillarga bog'liq ekan, demak, oliy ta'limda ham matnni tushunish, anglash har bir inson o'ziga xos tarzda talqin etilishi zarur bo'ladi.

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish choralari ko'rilib, talabalarning ona tilini talab darajasida egallashlariga qaratilgan o'quv-metodik ta'minot zamon talablari asosida takomillashtirilmoqda, o'zbek tili ta'limining amaliy jihatini kuchaytirishga qaratilgan ta'limiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, "ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish", vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifani sifatli amalga oshirish uchun matnni talqin va tahlil qilish, uni sharhlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham germenevtika masalasi o'zbek olimlari tomonidan ham keng o'rganila boshlandi. Adabiyotshunos olimlar Bahodir Karim, I.Rahimov, A.O'tamurodov, N.Shermuhamedova, Q.Nazarovlar tomonidan ham germenevtik ta'limotning ayrim masalalari o'rganildi. Bahodir Karim adabiyotshunos sifatida germenevtikani faqat badiiy ijod asarini o'rganish vositasi deb hisoblaydi. U "Sharq germenevtikasi ta'limoti" xususida ham fikr bildiradi va uni G'arb germenevtikasining rivojlanish yo'lini bosib o'tmaganligini ta'kidlaydi. Biroq, Sharq germenevtikasi deb atalayotgan Qur'oni Karimning ma'nolari tafsiri mohiyatan biz o'rganayotgan germenevtikaga to'la mos kelmaydi. Chunki, tafsirshunoslik va falsafiy germenevtika o'rtasida katta farq bor. N.Shermuhamedova tushunish va tushuntirishning germenevtik asoslarini falsafiy-metodologik jihatdan tahlil etadi va tushunishning muayyan hodisa ma'nosini anglashdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Shuningdek, M.Abdullayeva, Sh.Jabborov, G.Navro'zova, G.Yunusovalarning ilmiy ishlarida, maqolalarida ham germenevtikaning ilmiy bilishdagi ahamiyati hamda tarixiy negizlari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

O'zbek tilshunosligida matn va matn nazariyasi haqida ilk bor akademik G'.Abdurahmonov o'z qarashlarini bayon etgan bo'lsa, so'ng A.G'ulomov, M.Asqarovalar tomonidan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida matn birlik sifatida e'tirof etiladi. Keyinchalik I.Rasulov, M.To'qsonov, M.Mukarramovlar matnning turli tomonlari bo'yicha tadqiqotlar olib bordilar. Navruzova G.N., Yunusova G.S. Oliy ta'limda ona tili fanining ijtimoiy funktsi-

yasini o'rganish metodikada muhim ahamiyatga ega. Tilning funksiyalarini quyidagilarga ajratadi: 1) kommunikativ funksiya; 2) ijtimoiy funksiya; 3) ekspressiv funksiya; 4) estetik funksiya; 5) gnoseologik funksiya. Navruzova G.N., Yunusova G.S.ning tasniflashiga ko'ra esa oltita funksiya sanaladi: 1) emotiv funksiya (jo'natuvchiga mo'ljallanish, uning emosiyalarini uzatish); 2) kognitiv funksiya (adresatga mo'ljallanish, unda muayyan holat uyg'unishga intilish); 3) poetik funksiya (axborot shakli uchun); 4) metatil funksiyasi (til sistemasi uchun); 5) fatik funksiya (muloqot uchun); 6) referentiv funksiya (voqeyelik uchun). XX asrning dastlabki yillaridan hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar orasida Sh.Sh.Yuldashevaning "Davlat tili ta'limida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari". M.E.Axmedova, G.K.Rasulovalarning ona tili ta'lim mazmunida talabalarning so'z boyligini oshirish kabi tadqiqoti, esa talabalarning o'zbek tilida nutqini o'stirish masalalariga bag'ishlangan. Matnni germenevtik jihatdan o'rganishda talabalar ona tili ta'lim mazmuning hamma tomonlarini o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir bosqichda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasalishi haqida metodik bilimlar rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

Germenevtik yondashuvning ta'limiy maqsadi va natijasi.

Germenevtik yondashuv. Nutqning amalga oshish jarayonida tovush belgilari grafik qodlariga e'tibor qaratish. Matnni tushunishda nutqning to'g'ri ifoda etilishida kommunikativ hamda kreativlik

Germenevtik maqsad. Ijtimoiy-madaniy lakunalar va refleksiyalar semantikasini ularni nutqda ochib berish va bartaraf etish orqali tushunish til birliklarining tushunish uchun fikrni og'zaki bayon etishda nutq maxsuli tovush kodi belgilari bilan ifodalanishi. Uning adabiy til qoidalariga me'yorlariga javob berishini anglash. Talabalar ongida matnni to'g'ri anglash uchun, asosan, ikki me'yorga — urg'u va grammatik me'yorga qat'iy amal qilishi talab qilinadi. Nutq faoliyatining turli ko'rinishlarida ijtimoiy-madaniy birliklardan foydalanish.

Germenevtik natija. Muayyan matnlarda ijtimoiy- madaniy lakunalarning ma'no-mazmun vazifalarini tushunish ko'nikmalarini shakllantirish; refleksiyalar analitik faoliyatni amalga oshirish va bartaraf etish vositasi sifatida matnni leksik-semantik jihatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish dunyoni anglashda kognitivlik rivojlanadi. Grammatik me'yor esa ega, kesim, kelishik qo'shimchalarning to'g'ri qo'llanishi bilan bog'liq. Bu ikki qoidaga amal qilish nutq madaniyatining hamda matnni tushunishning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Talabalarning bunday imkoniyatlari ona tili ta'lim mazmuning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan germenevtik ta'limot asosida bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Koziyeva T.T. Ona tili ta'lim mazmuning o'rganishga bunday germenevtik yondashish ta'lim jaryonini talabalar nutqini o'stirish talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari vazifasini, hal etishga yo'naltirish imkonini berishini ta'kidlaydi. "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limi har bir guruhda quyidagicha qismlarni o'z ichiga oladi: "Tovushlar va harflar", "So'z", "Gap", "Bog'lanishli nutq". Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt bosqichda grammatik o'rganiladi. Har bir sinfda etakchi mavzular ajratiladi. Ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda ona tili pedagoglari oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Davlat ta'lim standaitida ta'kidlanganidek, qoraqlpoq tili ta'limining har bir bosqichida pedagogik, metodik didaktik talablarning qo'yilishi ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda filologik ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan filologik ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi. Ona tili ta'lim

mazmunini rivojlantirishda ta'limning mazkur 1-4 bosqichiga qo'yilgan metodik, didaktik, pedagogik talablardan kelib chiqib belgilanadi. Talabalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o'z g'ayalar fikrini anglashi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini metodik rivojlantirish.

1. Ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish.

2. Ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda yozma nutq belgilarini ta'riflashda ifodalash, matnni ifodalay o'qiy olish ko'nikmasini metodik rivojlantirish

Fikrni yozma bayon qilish bo'yicha belgilangan quyidagi ko'nikmalarni egallash:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;

b) tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;

tavsifda ona tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;

imloviy savodxonlikni egallashlariga erishish.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki bu vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarni metodik bajarish ko'p jihatdan ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda ta'lim mazmunini to'g'ri belgilashga bog'liq. Ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to'g'ri belgilansagina, oldinga qo'yilgan metodik, didaktik va pedagogik talablar to'liq bajariladi. Ma'lumki, DTSida belgilab berilgan ona tili ta'limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o'z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo'lib, bir-biriga muvofiq kelishi lozim. Xulosa qilib aytish mumkinki, ona tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda metodist olimlarning ko'p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o'qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir – Toshkent, – “O'zbekiston” NMIU, 2017, – 508 b.
2. Axmedova M.E., Rasulova G.K. Kredit-modul tizimida o'zbek tili ta'limida mustaqil o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. Uslubiy ko'rsatma, “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022
3. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (tilshunoslik fanlari misolida). Monografiya., Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ, 2022. 173 bet
4. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi // O'zMU XABARLARI, 2022, 1/2/1, 95-97 betlar
5. Axmedova M.E. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2 Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyat bulimi, 2022, 470-472 betlar
6. Erkinov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si talkinining XV-XX asr manbalari. Dokt. dissertatsiyasi. - Toshkent: Akademiya, 1998. -250 b.;
7. Baxodir Karim. Abdulla Qodiriy. -Toshkent: Fan, 2006. -246 b.;
8. Raximov I., Utamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari. -Toshkent: Universitet, 2005. -256 b.;
9. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. -Toshkent: Universitet, 2005. -390 b.;
10. Shermuxamedova N. Gnoseologiya. -Toshkent: UFMJ, 2007. -360 s.;
11. Nazarov K. Bilish falsafasi.. -Toshkent: Universitet, 2005. -320 b. Monografiya. 2024 yil 180 bet

12. Abdullayeva M. Epistemologicheskaya evolyusiy ratsionalizma // Falsafa va ijtimoiy tarakkilot: Xalkaro ilmiy konferensiya materiallari. -Toshkent: UFMJ, 2008. -S.28-30.; Jabborov Sh. Sharq falsafiy germenevtikasi // Falsafa va huquq. -Toshkent, 2004. -№1. -B. 27-29.;
13. Navruzova G.N., Yunusova G.S. Tasavvuf - Sharq germenevtikasining tarkibiy qismi // Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot: Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. -Toshkent: UFMJ, 2008. -B. 80-82.
14. Ergasheva A.R. Ona tili darslarida nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o'stirish metodikasi., T., 2010.69 b
15. Koziyeva T.T. Talabalarning tinglab tushunish, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik yondashuvdan foydalanish texnologiyalari. Monografiya. 2024 yil 180 bet

TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK IMKONIYATLAR VA MUAMMOLI MASALALAR

Djalgashova Qurbonoy

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Texnologik ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi
Chirchiq, O'zbekiston*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim muassasalarida texnologiyani o'qitish bilan bog'liq zamonaviy pedagogik imkoniyatlar va muammoli masalalar yoritib berilgan. Mualliflar o'qitishda elektron doska, onlayn platformalar va dasturiy ta'minot kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ularning ta'lim jarayoni samaradorligi va o'quvchilarning bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'siri tahlil qilgan. Shuningdek, u texnologiyaning mavjudligi, u bilan ishlash uchun o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, shuningdek, xavfsizlik masalalari va ta'limda texnologiyadan foydalanishning axloqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar qamrab olingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qitish, texnologiya, pedagogika, zamonaviy, guruh, ishlash.

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМНЫЕ ВОПРОСЫ В ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ

Джалгашова Курбаной

*Чирчикский государственный педагогический университет, студентка 3 курса
технологического образования
Чирчик, Узбекистан*

Аннотация. В статье освещаются современные педагогические возможности и проблемные вопросы, связанные с технологией обучения в образовательных учреждениях. Авторы проанализировали использование в обучении современных технологий, таких как электронные доски, онлайн-платформы и программное обеспечение, их эффективность в образовательном процессе и влияние на развитие навыков обучения учащихся. Также рассматриваются вопросы, связанные с доступностью технологий, профессиональной подготовкой учителей для работы с ними, а также вопросы безопасности и этические аспекты использования технологий в образовании.

Ключевые слова: начальное образование, технология, педагогика, современный, групповой, труд.

MODERN PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES AND PROBLEMATIC ISSUES IN TEACHING TECHNOLOGY

Dzhalgashova Kurbanoy

*Chirchik State Pedagogical University, 3rd year student of technological education
Chirchik, Uzbekistan*

Abstract. The article examines modern pedagogical opportunities and problematic issues related to teaching technology in educational institutions. The authors analyze the use of modern technologies such as interactive whiteboards, online platforms and software in teaching, their impact on the effectiveness of the educational process and the development of students' learning skills. It also covers issues related to the availability of technology, the professional training of teachers to work with it, as well as security issues and the ethical aspects of using technology in education.

Key words: primary class, teaching, technology, pedagogy, modern, group, work.

4) leksik-grammatik mashqlar, bunda o'quvchilar semantika, so'zning ma'nosi, grammatik hodisalarni bog'lashni o'rganadilar. Bu darsliklardagi mashqlarning kichik guruhi.

Mashqlarni bajarish bo'yicha tavsiyalar:

1. Mashqni bajarish uchun zarur bo'lgan materialni takrorlash.

2. O'quvchilarni mashq uchun topshiriq bilan tanishtirish (darslikdagi topshiriq shartini o'qish, o'qituvchi buni qanday qilishni o'quvchilarga tushuntirish).

3. Mashqni bajarish (bir nechta misollarni birgalikda bajarish, sharh bilan, keyin bolalarning mustaqil ishi, taxminiy variantlar).

4. Tekshirish (o'z-o'zini tekshirish yoki o'zaro tekshirish).

5. Umumlashtirish va xulosa qilish.

Ona tili darslarida yangi tushunchani o'rgatish va mustahkamlash darslari faqat tilning turli tomonlariga doir bilimni egallash masalalari bilangina bog'liq bo'lmasdan,

o'rganilayotgan bilimni qay darajada o'zlashtirish muammosi bilan ham uzviy bog'liqdir. O'quvchi darslarda o'rganilayotgan yangi grammatik bilimlarni anglab yetmog'i, o'zi dalil keltira olishi, oldingi o'zlashtirgan grammatik bilimlardan ajrata olmog'i zarur. Yangi grammatik tushunchani o'zlashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni oldiga qo'ymog'i lozim:

- O'rganilayotgan grammatik atama;
- O'rganilayotgan grammatik tushunchaning asosiy belgisini ajratish;
- O'rganilayotgan grammatik tushunchaga dalillar keltira olish;
- O'zlashtirilgan tushunchani qayta eslash yo'li orqali uni amalda qo'llay olish.

“Tarozi” metodi. Ushbu metod qo'llash orqali o'rganilgan grammatik tushunchalar yanada mustahkamlanadi. O'quvchilar ikki guruhga ajratgan holda ularga grammatik tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan savollar tarqatilinadi. Guruhdagi o'quvchilar bergan javobga qarab tarozi pallasiga ilib boriladi, qaysi guruhning palla tomoni og'ir bo'lsa o'sha guruh rag'batlantiriladi. O'quvchilar javoblari orqali o'qituvchi to'liq anglab yetmagan tushunchani bilib olmog'i kerak va o'sha tushuncha ustida qayta ishlanmog'i kerak. Bu metodni boshqa fanlarda ham qo'llasa bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, darsliklarda berilayotgan grammatik qoida hamda tushunchalarning muhim belgilarini ajratish va topshiriqlar orqali yanada mustahkamlab borish lozim. Buning uchun grammatik ta'riflardan grammatik topshiriqlarga, yoki aksincha, grammatik topshiriqlar yechimi orqali grammatik ta'riflarga o'tishda bog'liqlik darkor. Grammatik tahlil usullari o'rganilayotgan tushunchani yanada tushunib olishlarida yordam beruvchi vositadir. Ona tili o'qitish metodikasining mustaqil ta'lim, innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish mexanizmini yaratish, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, nutqiy intellektual sifatlarini shakllantirish, matn yaratish amaliyotini bosqichma-bosqich soddadan murakkabga tomon ishlab chiqilgan psixolingvistik topshiriqlar asosida tashkil qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and teaching: Foundations of the new reform. Harvard Educational Review, 57 (1), 1-22.
2. Каноныкин, Н.П. Методика преподавания русского языка в начальной школе / Н.П. Каноныкин, Н.А. Щербакова. – Л.: Педагогика, 1955. – 117 с.
3. Методика преподавания русского языка в начальных классах: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М.Р. Львов, В.Г. Горецкий. О.В. Сосновская. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 464 с.
4. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi. 1996. 9-b.
5. Roziqov O, Mahmudov M, Adizov B, Hamroyev A. Ona tili didaktikasi.- T.: “Yangi nashr” 2005. 22-b.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
7. www.pedagog.uz

“MAKTABGACHA TA’LIM” YO‘NALISHI TALABALARIGA MUSTAQIL TA’LIM VA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI BERISH ORQALI LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Nimatova Moxinur Sobit qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

“Pedagogika” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabalarining “Maktabgacha ta’limda bolalarning nutqini o‘stirish” fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish orqali ularda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yuzasidan turli xil mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kredit, modul, tizim, pedagogika, nutq, mustaqil ta’lim, lingvistika.

ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПУТЕМ ПОДАЧИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-УЧЕБ- НЫХ ЗАДАЧ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ «ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ»

Ниматова Мохинур Собит кизи

Старший преподаватель кафедры «Педагогика»

Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация: В данной статье даны различные рассуждения по вопросам формирования у учащихся направления “дошкольное образование” речевых компетенций посредством выполнения самостоятельных образовательных заданий по дисциплине “развитие речи детей в дошкольном образовании”.

Ключевые слова: кредит, модуль, система, педагогика, речь, самостоятельное обучение, лингвистика.

FORMATION OF LANGUAGE COMPETENCIES BY SUBMITTING INDEPENDENT EDUCATIONAL AND LEARNING TASKS TO STUDENTS OF THE DIRECTION “PRESCHOOL EDUCATION”

Nimatova Mokhinur Sobit kizi

Senior Lecturer at the Department of Pedagogy

Tashkent University of Applied Sciences

Annotation: this article provides various considerations on the issues of formation of speech competencies of students of the “preschool education” direction by completing independent educational tasks on the subject of “growing speech of children in preschool education”.

Keywords: credit, module, system, pedagogy, speech, Independent Education, linguistics.

Xalqaro rivojlangan davlatlarda til o'qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Buning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohlarida muayyan rivojlanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda. Zero, til muloqot vositasi sifatida barcha yo'nalishlarning taraqqiyotiga ta'sir qiladi, shuning uchun ham uni maktabgacha ta'lim tizimida lingvodidaktik o'qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarning mazmuniga, samaradorlik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida **mustaqil ta'lim** o'quv **topshiriqlaridan** savol, tezkor savol-javob, topshiriq va matn tahlillari va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalanilgan mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida takomillashtirildi.

O'zbekistonda ham Oliy ta'lim tizimida modul-kredit tizimiga o'tish jarayonlarida islohot kechmoqda. Bunga tayor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. "Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish" va "O'zbek tili" ta'limi orqali tushuntirishga doir mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ish shaklini baholashda o'qitish metodikasi lingvodidaktik kompetentsiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetentsiyalarni takomillashtirish nutqiy kompetentsiyalarni rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tiglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari rivojlantiriladi.

"Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish" va "O'zbek tili" ta'lim mazmunini boyitishda o'qitish usullariga mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda OTMga keladilar. Talabalar mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlarida axborotlarni tizimlashtirish ba'zi ko'nikmalargina rivojlantiriladi, asosan ulardagi lingvodidaktik ko'nikmalarni takomillashtirish galdagi vazifamiz hisoblanadi.

Ayniqsa, "Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish" va "O'zbek tili" ta'lim mazmunini boyitishda talabalar matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish" va "O'zbek tili" o'qitish metodikasining didaktik vazifasi talabalarda eshitganlarni *to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish* hamda *to'g'ri va mazmunli yoza olish* ko'nikmalarini takomillashtirish lozim.

O'quv elementlarining quyidagi matnli, kartografik (atlas, karta), jadvalli (grafiklar, diagrammalar, gistogrammalar), illyustrativ (rasmlar), Audio va video ma'ruzalar, Natural (kolleksiyalar, gerbariyalar), o'yinli (vaziyatli), kompyuterli turlarini ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etiladi. Malaka talabalarining asosiy foydalanuvchilari OTMning boshqaruv xodimlari va professor-o'qituvchilaridir. OTMning talabalar Davlat attestatsiya komissiyalari va maktabgacha ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari hisoblanadi. Pedagogik OTMni akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari, kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar, abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar foydalanadi.

60230100—"Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar. Umumiy kompetentsiyalar va kasbiy kompetentsiyalar "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim-tarbiya sohasiga pedagog va psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida fanga kirib kelgan bo'lib, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Nutqiy kompetentlik tilshunoslar tomonidan alohida bilim, malakalarni egallanishini

emas, balki har bir mustaqil maktabgacha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Talabalarga nutqiy kompetentsiyani takomillashtirishda mutaxassis o'z bilimlarini doimo boyitib borayotganini, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim nutqiy talablarni anglay olishni, tovush va ularni amaliyotda qo'llay olish, talabalarni individual xususiyatini inobatga olib ularga fonetikaga xos bo'lgan xususiyatlarni, tovush, tovush o'zgarish holatlari, fonetik tahlillarni ishlash va qo'llay bilishni taqozo etadi. Biz kompetentsiyani turlariga murojaat etsak.

Nutqiy kompetentlik –nutqiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, nutqning takomillashganligi, muloqotga kirisha olish ravon, so'zlashish. Og'zaki va yozma savodxonlik.

Maxsus kompetentlik– kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalari baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

Pedagogik-psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinni, samarali foydalanish;

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan jidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

Kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ektremal kompetentlik–favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan) da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qarorq abul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. Nutqiy kompetentsiyani takomillashtirishda, nutqqa xos bo'lgan barcha holatlarni alifbodan to'lovushgacha bo'lgan jarayonlarni turli xil tarbiyaviy usullar, o'yin texnologiyalari bilan singdirish lozim. Talabaga xos bo'lgan nutqiy jarayonlarga to'xtalamiz. Demak, biz qo'llash sohasi bo'yicha maktabgacha ta'lim metodist va tadqiqotchilarining fikriga tayanib talabaga xos bo'lgan nutqiy kompetentlikni quyidagi tarkibiy asoslarini ishlab chiqdik: Talaba yoshi inobatga olinadi. Fonetik o'zgarishlarga e'tibor berish lozim.

Tovush va ajratishdagi tafovut

Fonetik kompetentsiya.

Insert metodi asosida matnni ravon o'qish usuli.

Nutqiy sifatlarni o'zlashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.

Yod olish qobiliyatini rivojlantirish usullari.

Lug'at bilan ishlash usullari. Leksikologik kompetentsiya

Mutaxassis sifatida:

Aniq maqsad, intilish asosida nutqiy jarayonni takomillashtirish metodikasi;

Nutqiy jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish metodikasi;


Izchil ravishda yangilanib borayotgan maktabgacha bilimlarni o'zlashtirish metodikasi;

Ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish metodikasi;

Oliy maktabgacha faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbir etish metodikasi;

Kasbiy konikma va malakalarini takomillashtirish metodikasi.

Kredit-modul tizimiida talabalarning mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini tashkil etish metodikasini takomillashtirishda lingvopedagogik ko'rsatkichlarini pragmatik takomillashtirish modeli



Demak, kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o'xshash harakatlarni ko'zda tutadigan "bilim, ko'nikma va malakalardan farqli o'laroq, nutqiy kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi.

Nutqiy kompetentlik – talabalarga didaktik-pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llay olishda samarali natija beradi. Qo'llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini, hamda talabalarni nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda tushib qolgan tovushlarni qo'shib o'qiganda hosil bo'layotgan yangi so'zning holat va xususiyatlarini, o'rtoqlari bilan muloqot o'rnata olishi, tovushlarni yodlay olishi, matn tahliliga ko'proq o'qituvchi tomonidan undalishi, talabalarni individual va jamoaviy o'qitish, nutqiy kompetentsiyani o'rganish orqali didaktik-metodik nutqiy faoliyatning yangi usullarini egallay olishi hamda nutqdagi kreativ, tanqidiy fikrlashga e'tiborni qaratish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, biz tilshunos mutaxassislar nutqiy kompetentlikni o'g'zaki va yozma savodxonlik, maktabgacha tayyorgarlik, talabaning imkoniyatiga egalik va shu bila birga, ma'lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, nutqiy kompetentlik – didaktik-metodik nutqiy faoliyatiga doir kategoriya bo'lib, talabaning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan o'qituvchi faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi.

Pedagog-psixolog N.G.Vitkovskayaning ta'riflashicha, kompetentlik? qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy sifatleri, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy-texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarin safarbar qila olishga qodirligidir.

Psixologik nuqtai nazardan, A.K. Markovanning fikricha, kompetentlik muayyan insonning xarakteristikasi, ya'ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo'yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir kasbiy pedagog

M.E.Axmedova o'zining tadqiqot ishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini takomillashtirish asosini oltita sifatlar, ya'ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqishlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko'nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, jamallar, talabaning faoliyat va muloqotining turli sohalaridagi ko'nikmalari), hissiy sifatlar (o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalari takomillashtirishi, o'zining aniq hislari (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o'z hissiyholatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o'z-o'zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatleri tashkil etishini ta'kidlab o'tadi.

Demak, bir qator tadqiqotlarda bevosita tilshunoslarga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

Ana shunday tadqiqotlar sirasiga maktabgacha ta'lim tizimida D.Boboyeva va F.Qodirova, G.Janpesova tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. Pedagogga xos nutqiy kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlarni talabaga o'rgatishda albatta, talabaning individual xususiyatini, tarbiyaviy jarayonini hisobga olish, birinchi kurslardagi psixologik muhitini bilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'quv reja – oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq me'yoriy muddati uchun belgilaydigan me'yoriy-

uslubiy hujjat.

O'quv dasturi – ta'lim mazmuni belgilovchi, o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni o'zlashtirilishning eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan me'yoriy-uslubiy hujjat. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klasifikatoriga muvofiq tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) larining kodi va nomlari, harakatdagi o'quv rejaga muvofiq to'liq nomi, tasdiqlangan sanalari va belgilari ko'rsatiladi:

1. Dasturning asosiy parametrlari (fan kodi, qaysi o'quv yilidan boshlab joriy etilganligi, semestr, fanga ajratilgan kreditlar (soatlar), fan turi (majburiy/tanlov), ta'lim tili, haftadagi dars mashg'ulotlari soatlari, fanning nomi, Dars mashg'uloti va mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq hajmi, jami yuklama belgilanadi.
2. Fanning mazmuni.
3. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
4. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
5. Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar.
6. Fanni o'qitish natijalari va shakllanadigan kompetentsiyalar.
7. Kreditlarni to'plash tartibi.
8. Talabalar reytingini belgilash tartibi.
9. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari.
10. Tuzuvchilar va taqrizchilarning ismi-shariflari, ilmiy darajasi va unvonlari, OTM kengashining bayoni raqami. O'quv yuklamasida mustaqil ish soati.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25-30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga tengligi maqsadga muvofiq. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda — 40-50% foiz dars mashg'uloti o'quv topshiriqlari soati, 50-60% foiz mustaqil ta'lim soatiga, magistraturada — 30% -40% foiz dars mashg'uloti va o'quv topshiriqlari soati, 60-70% foiz mustaqil ta'lim soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'lib, talabaning umumiy yuklamasi dars mashg'uloti, o'quv topshiriqlari va mustaqil ta'lim yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta'lim tizimida dars mashg'uloti yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlari turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvalo, talabaning mustaqil ta'lim ishiga va o'quv topshirig'iga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Mustaqil ta'lim ikki turda bo'ladi:

Talabaning bevosita o'zi tomonidan (mobil qurilmasi orqali) amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari

Dars mashg'ulotiga tayyorlanish

Axborot izlash.

Forum

Test yechish.

Nazorat ishiga tayyorlanish.

An'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi: referat, kurs ishi, kurs loyihasi, amaliyot hisoboti, ilmiy tezis va maqolalar chop etish, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy izlanuvchiga rahbarlik, tayanch doktorantga rahbarlik va h.k.

Mustaqil ish soatlarini o'tkazishga oldindan ko'rsatma berish lozim. Mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlari talaba tomonidan bajariladigan fan dasturida belgilash samarali natijalarni beradi, qanday shaklda, qancha so'zdan iborat bo'lishi, individual tarzda yoki jamoaviy va boshqalar.

Xulosa sifatida pedagogik OTMning maktabgacha ta'lim tizimida talabalarning nutqiy kompetentsiyasi takomillashtirishda kredit-modul tizimining professor-o'qituvchilar modulli o'quv rejaga asosan (Sillabus) ishchi o'quv dasturini ishlab chiqadi, fanni bir ne-

cha mantiqan tugallangan o'quv modullariga ajratadi, har bir o'quv modulining maqsadi va vazifalarini belgilaydi, o'quv moduli bo'yicha talabalar o'zlashtirishi, bilishi va amalda qo'llay olishi lozim bo'lgan kompetentsiyalarni belgilaydi. O'quv moduli (fanlar) bo'yicha dars mashg'uloti mashg'ulotlari uchun (ma'ruza matnlari, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha materiallarni tayyorlaydi, testlar, vaziyatli (keysllarni) masalalarni tuzadi, individual topshiriqlarni shakllantiradi, axborot manbalari (foydalanish uchun tavsiya etilayotgan o'quv va ilmiy adabiyotlar ro'yxati) ni takomillashtiradi. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarni (referat, kurs ishlari yozish, manbalarni tarjima qilish, tegishli mavzular bo'yicha slayd tayyorlash, Glossariy tuzish, savol-javoblar banki) shakllantiradi va ularni o'zlashtirish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar beradi. Ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini olib boradi, tegishli modularni o'zlashtirish, kurs ishlari va BMillarini yozish bo'yicha talabalarga maslaxatlar beradi. O'quv elementlarining quyidagi: Tekstli, Kartografik (atlas, karta), Jadvalli (grafiklar, diagrammalar, gistogrammalar), Illyustrativ (rasmlar), Audio va video ma'ruzalar, Natural (kolleksiyalar, gerbariyalar), O'yinli (vaziyatli), Kompyuterli turlarini ishlab chiqadi va amaliyotga keng joriy etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova M.E.va boshqalar. Pedagogik mahorat. Darslk.T.: Zuxra baraka biznes MCHJ. 2024.– B.383.
2. Axmedova M.E.va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslk.T.: Zuxra baraka biznes MCHJ. 2024.– B.443.
3. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (tilshunoslik fanlari misolida). Monografiya. – T.: “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. - 2022. 173 b.
4. Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. Darslik. –Toshkent, 2008. –B. 192.
5. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasovova Y.N., Galimova E.F. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish // YUNISEF metodik qo'llanma, Toshkent-2020. 15-16 bet.
6. Babayeva D. R. “Nutq o'stish metodikasi” – T.: Fan va texnologiyalar, 2009. 118
7. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: “Barkamol fayz media”, 2018, – 432 b. 90-bet
8. Qodirova. F.R. Qodirova R.M. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. T.: “Istiqlol”, 2006.
9. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. – T., 2011.
10. Tajibayev G.Sh., “Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish” o'quv qo'llanma NamDU-2019 206-bet., 119-bet.

XALQARO TADQIQOT DASTURLARI DOIRASIDA ANIQ VA TABIIY FANLARNING INFORMATIKA BILAN ALOQADORLIGI

Yakubboyeva Nafisa Saxobiddinovna

*Nizomiy nomidagi TDPU, "Informatika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti,
p.f.f.d.(PhD)*

Qaxxarova Zilola Abdug'ani qizi

*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati, baholash mezonlaridagi muammolarni hal qilish yo'llari haqidagi ilmiy farazlar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, PISA, OECD, VR, AR, illuziya, modellashirish, vizual.

RELATIONSHIP OF THE EXACT AND NATURAL SCIENCES TO INFORMATICS WITHIN THE FRAMEWORK OF INTERNATIONAL RESEARCH PROGRAMS

Yakubboeva Nafisa Sakhobiddinovna

TSPU named after Nizami, Associate Professor of the Department of Computer Science and Methods of its Teaching, PhD

Qahharova Zilola Abdugani kizi

Independent researcher at the National Research Institute for Professional Development and Teacher Training in New Methods named after A.Avloni

Abstract. This article presents an analysis of scientific hypotheses about the role and importance of using the capabilities of computer technology in the teaching of Exact and Natural Sciences, ways to solve problems in the assessment criteria.

Keywords: digital technology, artificial intelligence, PISA, OECD, VR, AR, illusion, modeling, visual.

СВЯЗЬ ТОЧНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК С ИНФОРМАТИКОЙ В РАМКАХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ПРОГРАММ

Якуббоева Нафиса Сахобиддиновна

*ТГПУ им. Низами, доцент кафедры "Информатика и методика ее преподавания",
PhD*

Каххарова Зилола Абдугани кизи

*Независимый исследователь Национального научно-исследовательского
института профессионального развития и обучения педагогов новым
методикам имени А.Авлони*

Аннотация. В данной статье представлен анализ научных гипотез о роли и

значении использования возможностей вычислительной техники в преподавании точных и естественных наук, пути решения задач по критериям оценки.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, PISA, OЭCP, VR, AR, иллюзия, моделирование, визуализация.

Xalqaro tadqiqot dasturlari bugungi global ta'lim, fan va texnologiya sohaları hamda zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga bo'lib, ular ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Global muammolar (masalan, iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, energiya manbalari) yagona davlatning ilmiy salohiyati bilan hal qilinmaydi. Xalqaro tadqiqot dasturlari olimlar va mutaxassislarining bilimlarini jamlab, birgalikda innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Tadqiqotlar ko'pincha katta mablag' va zamonaviy texnologiyalarni talab qiladi. Xalqaro hamkorlik orqali resurslar va texnologiyalarni birlashtirish tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi. Xalqaro dasturlar olim va tadqiqotchilar o'rtasida ma'lumot va tajriba almashinuvini ta'minlaydi. Bu yangi usullar va yondashuvlarni o'zlashtirish imkonini beradi hamda xalqaro ilmiy hamjamiyatning bir butunligiga hissa qo'shadi.

Bunday dasturlar nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlar orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi va iqtisodiyotning yangi tarmoqlari rivojlanishi mumkin. Xalqaro tadqiqot dasturlari zamonaviy ilmiy va texnologik rivojlanishda hal qiluvchi o'rin tutadi va ular jamiyat oldida turgan murakkab masalalarni hal qilish uchun zarurdir.

Xalqaro tadqiqot dasturlarining dolzarbligini quyidagi bir qancha sabablar asosida tushuntirish mumkin:

Globalashuv va ta'lim sifati. Xalqaro tadqiqot dasturlari, masalan, PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash va taqqoslash imkonini beradi. Ushbu dasturlar o'quvchilar bilimni xalqaro miqyosda solishtirish va yutuqlarni aniqlash uchun zamonaviy usullarni taklif etadi. Natijalar mamlakatlar o'rtasida o'quv jarayonlari va ta'lim strategiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Ta'limda islohotlar va yangi yondashuvlar. Xalqaro tadqiqot dasturlari turli davlatlarga ta'lim sohasidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlashda yordam beradi. Bu tadqiqotlar asosida qabul qilingan tavsiyalar va natijalar davlat siyosatchilariga ta'lim tizimida islohotlar qilish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda yo'nalish beradi. Natijada ta'lim jarayonini sifat jihatidan yaxshilash, yangi pedagogik texnologiyalar va uslublarni joriy etish osonlashadi.

Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning tarqalishi. Xalqaro tadqiqot dasturlari innovatsiyalarni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu dasturlar texnologiyalardan ta'lim va ilmiy faoliyatda foydalanishni tahlil qiladi, bu esa raqamli infratuzilmani yaxshilash va texnologiyalarni keng joriy etishga turtki beradi. Jumladan, axborot texnologiyalarini o'quv jarayonlariga kiritish, masofaviy ta'lim va onlayn platformalar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlash kabi masalalar hal qilinadi.

Ilm-fan va tadqiqotda hamkorlik. Xalqaro dasturlar olimlar va tadqiqotchilar o'rtasida global miqyosdagi hamkorlikni rag'batlantiradi. Tadqiqotlar natijasida yaratilgan tahliliy ma'lumotlar va metodologiyalar xalqaro hamjamiyatning umumiy ilmiy tajribasini boyitadi. Masalan, Horizon Europe va UNESCO dasturlari olimlar va mutaxassislar uchun hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini yaratadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish. Xalqaro tadqiqot dasturlari ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijalariga asoslanib, davlatlar o'zlarining ta'lim tizimlarini xalqaro me'yorlarga moslashtirish va bilimli kadrlar tayyorlashga intiladi.

Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, raqobatbardosh mehnat bozori va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muammolarni global miqyosda hal qilish. Xalqaro tadqiqot dasturlari global muammolar, masalan, ekologiya, sog'liqni saqlash, ijtimoiy tengsizlik va boshqa dolzarb masalalarni o'rganishga qaratilgan. Ular turli davlatlarda mavjud bo'lgan tajribalarni o'rganib, umumiy yechimlarni topishga yordam beradi. Shuningdek, global tadqiqot dasturlari iqlim o'zgarishi, pandemiyalar va migratsiya kabi masalalar bo'yicha ham turli mintaqalar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi.

Xalqaro tadqiqot dasturlarining dolzarbligi shundaki, ular mamlakatlar o'rtasida ta'lim, ilmiy va texnologik rivojlanish borasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Ular nafaqat ta'lim jarayonini yaxshilash, balki innovatsiyalarni rivojlantirish, global muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ta'lim sifati qay darajada keng bo'lsa, iqtisodiy maqsad va kelajakka sarmoya kiritishda hech qanday ikkilanishlar vujudga kelmaydi. Informatikaning barcha tarmoqlarga faol kirib borishi ta'lim olishdagi muammolarning yechimiga aylanib bormoqda. Qaysi sohaga e'tibor bermaylik, unda albatta axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni sezilarli darajada muhimdir. Aniq fanlar tarkibida hisob va yechimlarning aniq ifodalanishi, ayniqsa vaqt talab qiluvchi yechimlarni oson hal etishda, tabiiy fanlarni o'rganish borasida tabiat hodisalarini prognoz qilish, laboratoriya mashg'ulotlaridagi xavfni oldini olish, tibbiyotda turli xil kasalliklarni aniqlashda, ayniqsa, mukammal vosita bu- kompyuter texnologiyasi bo'lib qoldi. Tabiiy fanlarda esa hozirda mukammal analiz va sintez qiluvchi tajribalarini ham virtual loyihalardan foydalanib to'liq natijaga erishish imkoniyati bor.

Respublikamizda endilikda aniq va tabiiy fanlar rivojini kuzatish va bilim oluvchilarning malakaviy kompetensiyalarini oshirish maqsadida xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishni maqsad qilindi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha o'quvchilarda matematik savodxonlik, o'qish savodxonligi, tabiiy savodxonlik, kreativ fikrlash, kompyuter savodxonligi, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish va unda baholanadigan asosiy kompetensiyalar nimalardan iborat ekanligi, o'quvchilarga hayotiy vaziyatlarni qo'llagan holda dars mazmunini oson va qulay tushuntirish yo'llarini qidirish, undan tashqari har bir o'qituvchi ushbu xalqaro dasturlarda ta'lim oluvchilarning munosib ishtirok etishini ta'minlash maqsadida samarali ish tashkil qilishi hozirgi davr talabidir.

PISA tadqiqotidan ko'zlangan asosiy maqsad, ta'lim siyosati va tizimiga yaqqol natijalarga ega, o'quvchilarning kreativ fikrlash borasida xalqaro taqqoslash mumkin bo'lgan ma'lumotni taqdim etishdir. Xalqaro tadqiqot dasturlarida foydalanilgan test topshiriqlarini ham natijalarini aniqlashda baholash mezoni zarurdir. TIMSS, PIRLS va PISA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar, o'qish savodxonligi bo'yicha erishgan yutuqlarining taqqoslanadigan va standartlashtirilgan dalillarini taqdim etadi.

Matematik savodxonlikni oshirishda unga informatikaga oid topshiriq namunalari ham yuzaga chiqadi. Demak, o'quvchi barcha fanlarni integratsiyalashuvini tushuna olishi va masalalarga ijodiy yondashishi lozim. Shu bilan birga bugungi kun yangiliklaridan ham doimiy habardorligi ahamiyatga egadir. Deyarli informatika sohalariga kirib kelayotgan yangiliklar, texnologik mahsulotlar turli xil fan jabhalariga daxldor vosita sifatida ishlatiladi. VR(Virtual Reality-virtual voqelik) va AR(Augmented reality-to'ldirilgan voqelik) bular aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda juda muhim sanaladi. Virtual voqelik yangi sun'iy dunyoni yaratsa, to'ldirilgan voqelik esa real dunyoga individual sun'iy elementlarni kiritadi.[1] Oddiy tabiiy o'simliklarni kerakli maydonda hosil qilish ham, ushbu o'simliklardan laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish ham ikki voqelik tarkibida real ko'rish va ishtirok etishni vujudga keltiradi. Sun'iy intellektning inson tajriba sinov mashg'ulotlarida vositachi bo'lib xizmat qilishi fanda yangiliklardan biridir.

VR texnologiyasidan foydalanib biz zohiriy illuziyaning mukammal yaratilishini ishonchli tasvirlar bilan birga ko'ramiz. [2,127-128]

Bunday tajribalar uchun albatta dasturiy ta'minotning keng assortimenti optimalashtirish imkonini beradi. Materialni idrok etishni faollashtiradi va imkoniyat yaratadi. Fazoviy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularni o'rganayotganda ham ko'rinish va vaqt shkalasi, vizual modellashtirish kerakligini anglatadi. [2,12-17]

Yangi vizual modellashtirish vositalarini ishlab chiqishda talabalar uchun mustaqil ishining samarali tashkil etilishiga olib keladi. Foydalanuvchi o'rganilayotgan materialning mazmuni, uning o'rni va ahamiyati, xususiyati, modelning maqsadi haqida ma'lumot oladi. [3,544-547]

Bularning barchasiga ta'sir qiladigan konstruktiv qadamlardan biri o'quv jarayonining natijalarini baholash uchun test tizimini joriy etishdir. Kompyuter testi ob'ektiv o'lchash protsedurasi sifatida ta'lim yutuqi uchun operatsion samarali shaklidir va o'quv jarayonida keng qo'llaniladigan nazorat sifatida keng foydalaniladi. Kompyuter tabiiy fanlar bo'yicha testlarning o'ziga xos xususiyatlari bor, ya'ni, alohida e'tibor va testlarni tayyorlashning to'g'riligini talab qiladigan va javoblardagi noaniqlikni bartaraf etadigan foydalanish imkoniyatlari ta'lim muhitiga yangi jarayoni sifatini ta'minlash tizimini shakllantirishdir.

Ta'lim bo'yicha xalqaro miqyosda tasdiqlangan ekspert tashkiloti sifatida OECD (Organization for Economic Cooperation and Development-Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ta'lim sohasidagi yutuqlar, kamchiliklarni aniqlashda faolligi, undan tashqari bugungi kunda ta'lim siyosati to'g'ri tashkil etilganligini, undagi xatoliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun zamin yaratadi. OECD ning asosiy boshqaruvi bilim tendensiyalarini ishlab chiqarish, izohlash va tarqatish, fikrlash doirasini kreativlashtirish hamda bellashtirish bilan shug'ullanadi. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha o'quvchilarda matematik savodxonlik, o'qish savodxonligi, tabiiy savodxonlik, kreativ fikrlash, kompyuter savodxonligi, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish va unda baholanadigan asosiy kompetensiyalar nimalardan iborat ekanligi, o'quvchilarga hayotiy vaziyatlarni qo'llagan holda dars mazmunini oson va qulay tushuntirish yo'llarini qidirish, undan tashqari har bir o'qituvchi ushbu xalqaro dasturlarda ta'lim oluvchilarning munosib ishtirok etishini ta'minlash maqsadida samarali ish tashkil qilishi hozirgi davr talabidir.

PISA testlari xuddi shu o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. PISA testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi. Ushbu tadqiqotlar kompyuter texnologiyalari asosida taqdim etiladi va bajariladi. [5,6-16]

Bugungi axborot jamiyatidagi ma'lumotlarning tez o'sishi miqdoriy ma'lumotlarning turli xil vizual ko'rinishini keltirib chiqardi. Internet, gazetalar, jurnallar, darsliklar, ma'lumotnomalar va maqolalarda jadval, diagramma va grafik ko'rinishda ma'lumotlar mavjud.

Xulosa o'rnida xalqaro baholash dasturlarida barcha yo'nalishlarda kompyuter texnologiyasidan unumli foydallangan holda ishtirok etib yaxshi natijalarga erishish uchun ma'lumotlar displeylaridan xulosa qilishlari va qiziqtirgan savollarga javob berish uchun bir yoki bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanishlari kerak; ma'lumot yoki toifalarni tartibga solishga yordam berishini va ma'lumotlarni taqqoslash usulini taqdim etishini tushunishlari kerak; jadvallardan, piktogrammalardan, gistogrammalardan, chiziqli diagrammalardan va doiraviy diagrammalardan ma'lumotlarni o'qish va jadvallarni, piktogrammalarni, gistogrammalarni, chiziqli diagrammalarni va doiraviy diagrammalarni yaratish yoki to'ldirish kabi vazifalarni bajarish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Steven M. LaValle. Virtual reality University of Oulu.2019.
2. Булычева М. Использование информационных коммуникационных технологий на уроках биологии / М. Булычева. – Киев : Растан, 2008.
3. Горбунова Л. И. Использование информационных технологий в процессе обучения / Л. И. Горбунова, Е. А. Субботина. – Москва, 2013.
4. Кальщикова, Е. В. Применение компьютерных технологий при создании мультимедийных слайд-лекций в начертательной геометрии. Поверхности и тела / Е. В. Кальщикова // Магнитогорский гос. ун-т ; под общ. ред. В. П. Семенова [и др.]. – Магнитогорск : 2009.
5. Z.Qaxharova. Informatikani o'qitishda PISA, TIMSS, PIRLS va STEM testlarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasi. Magistrlik akademik darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. Nizomiy nomidagi TDPU.Toshkent 2023 y.

КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯСИДА ХАЛҚ МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАРИ АСОСИДАГИ МЕХНАТ ТАРБИЯСИНИНГ ЎРНИ

Нормуродова Бибинор Абдувоҳидовна
“Педагогика” кафедраси катта ўқитувчиси
Тошкент амалий фанлар университети
Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация: ушбу мақолада кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар меҳнат фаолиятига муносабатларини ёритишда улар шахсининг ўзига хос хусусиятлари муҳим аҳамиятга эга эканлиги, ўқувчиларнинг мустақил меҳнатга муносабати, олган билимларини саноат ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида ҳамда ўзига ўзи хизмат қилишда амалий равишда қўллашнинг хусусиятини ёритиб берилган. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар меҳнат тарбиясини халқ миллий анъаналари орқали мактабгача тарбия муассасаларида, оилада, бошланғич мактабда дарсларда, синфдан ва мактабдан ташқари ишларда, турар жой маҳаллаларда босқичма – босқич амалга оширишнинг оптимал вариантлари ҳақида муҳим маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Анъана, тарбия, муносабат, меҳнат, жараён, фаолият, эҳтиёж, шахс, интилиш, мустақил, мақсад, тасаввур, кўникма, ижтимоий, экологик, дастур, ахлоқий, моддий.

РОЛЬ ТРУДОВОГО ВОСПИТАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЯХ НАРОДА, В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Нормуродова Бибинор Абдувоҳидовна
Старший преподаватель кафедры «Педагогика»
Ташкентский университет прикладных наук
Ташкент, Узбекистан

Аннотация: в данной статье особенности личности учащихся младшего школьного возраста имеют важное значение для объяснения их отношения к труду, отношения учащихся к самостоятельной работе, практическому применению полученных знаний в промышленном и сельскохозяйственном производстве и самообслуживании. Приводятся важные сведения об оптимальных вариантах поэтапной реализации трудового воспитания детей младшего школьного возраста через национальные традиции в дошкольных образовательных учреждениях, в семье, на занятиях в начальной школе, в классной и внеклассной деятельности, в жилые районы.

Ключевые слова: традиция, образование, установка, коктейль, процесс, деятельность, желание, личность, стремление, независимость, цель, воображение, умение, социальное, экологическое, программа, этическое, материальное.

THE ROLE OF LABOR EDUCATION, BASED ON THE NATIONAL TRADITIONS OF THE PEOPLE, IN THE EDUCATION OF CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE

Normurodova Bibinor Abduvokhidovna
Senior Lecturer at the Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences
Tashkent, Uzbekistan

Abstract: in this article, the personality traits of primary school age students are important for explaining their attitude to work, students' attitude to independent work, the practical application of acquired knowledge in industrial and agricultural production and self-service. Important information is provided on the optimal options for the phased implementation of labor education for children of primary school age through national traditions in preschool educational institutions, in the family, in classes in primary school, in class and extracurricular activities, in residential areas.

Key words: tradition, education, attitude, cocktail, process, activity, desire, personality, aspiration, independence, goal, imagination, skill, social, environmental, program, ethical, material.

Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг меҳнат тарбиясида илғор меҳнат анъаналари, урф-одатлари ва маросимларининг ролига катта ўрин берилиши керак. Чунки уларда халқнинг кўп асрлик тажрибаси тўпланган. Самарали тарбиявий таъсир этишининг катта имкониятлари жамланган.

Дарҳақиқат, халқнинг меҳнат тарбиясига оид анъаналари асрлар мобайнида синалган барқарорлиги, тарбияланувчиларга яқинлиги, воқеликка боғлиқлиги, тушунарлилиги, муайянлиги, кўрсатмалилиги билан ажралиб туради. Ўз навбатида бу хусусиятлар мазкур анъаналарнинг пухта ўзлаштирилишини таъминлайди ҳамда ўсиб-ўлғайиб келаётган ёш авлодга унутилмас таъсир кўрсатади.

Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг меҳнат тарбиясида халқ миллий анъаналаридан фойдаланишнинг назарий моделини лойиҳалашда асосий талабларга риоя қилдик. Бу талабларни амалга ошириш меҳнат таълими ва тарбия мақсадининг тубдан ўзгаришини таъминлайди. Бу мақсад билим, кўникма ва малакалар миқдорий кўрсаткичлари билан эмас, балки болаларнинг ақлий, иродавий ва жисмоний ўсиши, меҳнатнинг маънавий қимматини англаши ҳамда меҳнатга тўғри муносабатларни ўзлаштириши учун яратилган имкониятлар билан характерланади.

Шахснинг ижтимоийлашуви қайта ўзгартириш фаолияти воситасида, шунингдек, шахснинг шаклланишидек фалсафий категорияни ифодалаш орқали амалга ошади. Бунда ўқувчини педагогик таъсир объектдан педагогик субъектга "ўтказиш алоҳида аҳамият касб этади. Бу иш меҳнатда тарбиялаш, ўқитиш ва камол топтириш жараёнининг ташкилий- процессуал жиҳатларини ўзгартиришни тақозо қилади.

Психологик жиҳатдан кичик мактаб ёшидаги ўқувчи шахсининг ўқув ишларига қизиқиши ва ижодий муносабатини, уларни англашга интилишни таркиб топтириш зарур. Натижада ўқувчида ўқув билиш меҳнат фаолиятида эришган самаралардан қаноатланиш ҳосил бўлади, энг муҳими унда ўқув ишлари ва ижтимоий фойдали меҳнат билан мустақил, онгли равишда шуғулланишга интилиш уйғонади.

Дидактик жиҳат этнопедагогик материал мазмунини ва унга мос шакллар, методлар ҳамда воситаларни, тарбиявий фаоллаштириш йўллари танлашдан бошлаб, ўзлаштирилган билим, кўникма ва малакалари шаклланишида намоён бўлади. Ўқувчи шу натижаларни ўзининг моддий ва маънавий бойликлар яратишда фаол қатнашиши учун ижтимоий-қимматли кўлланма сифатида англайди.

Фалсафий, психологик ва дидактик компонентларнинг мажмуи меҳнат тарбиясининг концептуал асоси сифатида ўз ичига илғор миллий анъаналарни олади ва қуйидагиларни таъминлайди:

- ўқувчилар таълимий ишлари фаоллашувини;
- ўқувчилар билиш даражасининг ортишини;
- дастур материалининг онгли ўзлаштирилишини;

-меҳнатда ўқитиш, жараёнининг тарбиявий имконияти ошишини,

Ёшлар психологиясидаги улғайиш ҳаётга тайёрланиш тушунчалари сифат жиҳатдан бошқача маъно касб этади. Бу эса боланинг мактабгача ёшдан бошланғич мактабдаги машғулотлар даврига ўтиши фақат жисмоний етилишдан эмас, балки умуминсоний маънавий-ахлоқий қадриятлар, этник маданий ютуқлар билан танишишдан ҳам иборатлигига боғлиқдир.

Мактабгача ёшдаги ва кичик мактаб ёшидаги болаларнинг меҳнат фаолияти нормалари ҳар хил ҳатто қарама-қарши ҳам бўлади. Масалан, мактабгача ёшдаги боланинг меҳнат жараёни соф ўйин фаолияти ҳисобланади ва унда масъулият бўлмади, унга қуйиладиган асосий талаб бўйсунишдан иборат бўлади. Кичик мактаб ёшдаги боланинг меҳнат жараёни ўқув-билиш фаолияти сифатида характерланади ва у ўз ичига ижтимоий фойдали меҳнат фаолияти элементларини олади. Бу элементлар ўз навбатида ташаббускорлик, қатъиятлилик ва нисбий мустақиллик сингари сифатлар билан характерланадиган талаблар даражаси ортишига ҳам мувофиқ бўлади.

bildirishgan. Ayniqsa Selixova G., o'quv topshiriqlari bo'yicha, Sluxay T.A., o'quv jarayonida nutqiy tafakkurni rivojlantirish, Boronenko Ye.A. nutqni didaktik mexanizm asosida rivojlantirish, Larinova L.T., Bluxov V.Ya. 139 orfografik kommunikatsion yondashuvlar asosida, Voiteleva T.M., Koreneva A.V., Korovina V nutqiy malakalarni rivojlantirishda kommunikatsion yondashuvlar asosida, Avanesov R.I. Yeremeeva A.P., Litnevskaya Ye.I., Bogryanseva V.A., Antonova Ye.S., Babayseva V.V., Buslaev F.I., Gas I.Yu., F.F.Fortunov., Rozental D.E., Bonk N.A, Kotiy G.A.Lukyanova N.A., Yazi. Biz talabalar uchun o'z vaqtlarini ajratish, shuningdek, har qanday o'quv doirasida talabalarning nutqini takomillashtirishda mustaqil ta'lim topshiriq ishining asosi bo'lgan o'quv materiallari bilan ishlashning oqilona usullari va uslublarini o'zlashtirish juda muhim ekanligiga to'liq qo'shilamiz.

Bunday ko'nikmalar orasida Yu.Miroshnichenko va O.Troyan quyidagilar bilan ajralib turadi:

- vaqtdan oqilona foydalanish, ish va dam olishni almashtirish, tarbiyaviy ishlar gigienasi qoidalari;
- ma'lumot qidirish, kataloglar, ensiklopediyalar, tarmoq resurslari bilan ishlash va boshqalar;
- matnlarni semantik qayta ishlash, asosiy narsani ta'kidlash (g'oyalar, qonunlar, tamoyillar);
- diqqatni jamlash va yodlash;
- axborotlarni qisqacha ratsional qayd qilish (ko'chirmalar, tezislar, reja, konspekt, referat, taqriz va boshqalar.);
- ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya va amaliy ishlarga, shuningdek modullarning yakuniy dars mashg'ulotlarilariga tayyorgarlik.

N.Morozova, R.Nizamov, S.Trubacheva, N.Sagina kabi pedagog olimlar mustaqil ta'lim topshiriqlari ishini o'qituvchilar tomonidan rejalashtirilgan, tashkiliy va uslubiy yo'naltirilgan deb tushunadi talabalarning individual va jamoaviy ta'lim faoliyati turlari, guruhda ham, ulardan tashqarida ham, agar o'qituvchi rahbarligida bo'lsa, unda uning bevosita ishtirokisiz amalga oshirilishini ta'kidlaydi.

Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quv faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining roli ko'plab olimlar, jumladan, G.Gabay, I.Moroz, N.Nikandrov, L.Juravskaya va boshqalar tomonidan muhokama qilinadi. Vazifalar tizimini ishlab chiqadigan, ularni amalga oshirishdan oldin talabalarga ko'rsatma beradigan, mustaqil ta'lim topshiriqlari ishlarning borishini kuzatadigan, qiyinchiliklarni yengish va xatolarni tuzatishda talabalarga maslahat beradigan va yordam beradigan o'qituvchi ekanligi ko'rsatiladi, natijalarni umumlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Shuni hisobga olgan holda, o'qituvchining rollari uning talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlari faoliyatiga aralashishiga, maqsadlariga va bilimlarni o'zlashtirish darajasiga qarab farqlanadi. Shunday qilib, L.M. Juravskaya o'qituvchining to'rtta rolini – ma'ruzachini asosiy ma'lumot manbai sifatida belgilaydi; faoliyat rahbari yoki tashkilotchisi; maslahatchi; va moderator, faoliyatini yo'naltiruvchi kuzatuvchi yoki hakam sifatida. Yaqinda boshqa rollar ham qayd etildi, masalan, faoliyatni osonlashtiruvchi vosita sifatida; – murabbiy, faoliyatiga yordam beradigan murabbiy sifatida; motivator, mustaqil ishni tashkil qilishning muqobil usullarini, ya'ni muvaffaqiyatga erishish yo'llarini ko'rsatib beradi. Shunday qilib, mustaqil ta'lim topshiriq ishlarida, o'qituvchi ko'plab rollarga ega va modul-kreditli o'qitish tizimi doirasida o'qituvchi, novator, inovator motivator-fasilitator, tyutr (moderator) vazifalarini bajarishi kerak.

Demak, o'qituvchi ko'plab rollarga ega va kredit-modulli o'qitish tizimi doirasida bining fikrimizcha, birinchi o'qituvchi-mavzuni uchta maqsad asosida amalga oshirib berish, ikkinchi navbatda novator mavzuga yangilik kirita oladigan, uchinchi navbatda inovator-fanga yangilik kirita oladigan, to'rtinchi navbatda motivator-fanga qiziqtirish, g'oyalar bera oladigan, keyin yordamchi va faoliyat jarayonida – ustoz-murabbiy, moderator va

maslahatchi bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, talabalarga ko'rsatma berish, o'qituvchi ularni rag'batlantirishi, mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlash uchun eng qulay rejimni ta'minlashi, o'quv faoliyati jarayonida talabalarni muvofiqlashtirishi va maslahat berishi kerak. Yuqorida qayd etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari har bir foydalanuvchining harakatlarini alohida kuzatish imkoniyatini beradi, bu muhokama qilina-yotgan muammo kontekstida muhimdir.

Ma'lum bir vazifani muhokama qilishda talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi veb-seminarlar, telekonferensiyalar, video suhbatlar-bu o'qituvchi rahbarligida talabalarining guruhdan tashqarida, ya'ni eng maqbul rejimda, talabalarining harakatlarini deyarli bir zumda muvofiqlashtirish va maslahat yordami sharoitida haqiqiy mustaqil ta'lim topshiriq ishlashiga olib kelishi mumkin. Mustaqil ta'lim topshiriqlari bu ta'limda o'qitishning asosiy shakli bo'lib, unda talaba zarur bilim, ko'nikma va malakalarni oladi, tizimli, ishlashni o'rganadi, o'zining aqliy faoliyat uslubini rivojlantiradi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari ishi ta'limning boshqa shakllaridan shunisi bilan farq qiladiki, talaba o'zining o'quv faoliyatini tashkil etadi. M.Antonyuk, L.Derkach, N.Sagina, A.Chij, I. Shaydur va boshqa olimlarning fikricha, talabalarining mustaqil o'quv faoliyati ularning xususiyatlari va bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. V. Vergasov, kabi mualliflar. A. Mirolyubov va boshqalar mustaqil ta'lim topshiriq ishini talabalarining maqsadli, faol va nisbatan erkin faoliyati deb tushunadilar.

Darhaqiqat, olimlarning fikriga ko'ra, bu o'z-o'zini o'rganish jarayoni sub'ektining maqsadli, tizimlashtirilgan, mustaqil va alohida faoliyati. O'z-o'zini o'rganishning mohiyati bilim olish, zarur ko'nikmalarni egallash jarayonini ongli ravishda o'z-o'zini tashkil etishdir. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z - o'zini rivojlantirish usullari bilan shaxsiy fazilatlar, qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi. Har uchala tarkibiy qism (o'z - o'zini tarbiyalash, o'z - o'zini tarbiyalash, o'z - o'zini rivojlantirish) bir - biri bilan chambarchas bog'liq, ammo bu tarkibiy qismlarning hech biri asosiy emas. O'z - o'zini o'rganish, o'z - o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirish samaradorligi talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlari faoliyatiga bog'liq bo'lib, u nafaqat shaxsning ixtiyoriy jarayonlarini rivojlantirishga, balki barqaror motivatsiyaga, ya'ni faoliyat va xulqatvorning o'ziga xos shakllarini belgilaydigan motivlar tizimiga asoslanadi. Bukina, A. Verbiskiy va boshqalar.

Shaxsiy mustaqillikni rivojlantirish mezonlarini mustaqil ta'lim topshiriqlari ishi uchun taklif qilinadigan vazifalarning intensivligi, shuningdek o'zini o'zi tashkil etish sharoitida bajariladigan vazifalarning ma'lum bir intizom bo'yicha taklif qilingan vazifalarning umumiy soniga nisbatan foizi deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, ish qiziqish bilan amalga oshirilishi kerak. Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish —mustaqil ta'lim topshiriqlari ishi kabi tushunchani aniqlashga asosiy yondashuvlarni bilishga imkon berdi, ya'ni: – dars mashg'uloti va dars mashg'ulotidan tashqari vaqtlarda ular tomonidan amalga oshiriladigan talabalarining individual va guruhli bilim faoliyati turlari (R. Nizamov, N. Sagina); – o'qituvchi rahbarligida bajariladigan turli xil o'quv vazifalari (P. Pidkassistiy, M. Xarunov, N. Nikandrov); – talabalarining o'quv faoliyatini boshqarish o'qituvchi yo'qligida va uning bevosita yordamisiz amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etish tizimi (V. Graf, I. Ilyasov, N. Sagina); – talabalar ishi, ular asosida tuzilgan maxsus individual o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi talabalarining individual xususiyatlari va bilim imkoniyatlarini hisobga olish (S. Arxangelskiy, L. Derkach, I. Shaydur, A. Chiz); – o'quv faoliyatining o'ziga xos turi, uning asosiy maqsadi mavzuning mustaqilligini rivojlantirish va shu bilan birga uning ko'nikma, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilvosita barcha turdagi dars mashg'ulotlar mazmuni va usullari asosida sodir bo'ladi.

Xulosa sifatida mustaqil fikrlashga o'rgatish - har qanday o'quv fani bo'yicha darslikning asosiy didaktik xom-ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Shu o'quv materiallari asosida talabani mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun, avvalo ularga darslik muallifning, dars mashg'uloti jarayonida o'qituvchining o'rnini

ko'rsatmasligi kerak. O'qituvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda yetakchilik qiladigan ikkinchi jihat uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlarga, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdir.

Shunday qilib, modul-kreditli o'qitish tizimida talabalarning mustaqil ta'lim topshiriq ishini rivojlantirishni, ta'lim shaklini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, shu jumladan individual va jamoaviy o'quv faoliyati turlari, shuningdek, o'qituvchi rahbarligida talabalarning individual xususiyatlari va bilim qobiliyatlarini hisobga olgan holda, guruhdan va dars mashg'ulotidan tashqari amalga oshiriladi. Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlari ishining maqsadi nafaqat talabalarning bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirish va ilmiy ma'lumotlar oqimida erkin harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish, balki erkin demokratik jamiyatda o'zo'zini o'rganish va o'zini o'zi anglashning zarur sharti sifatida faoliyat va mustaqillikni takomillastirishdir.

Ta'kidlash kerakki, Boloniya tizimida ta'lim jarayoni sharoitida talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlari ishlarini tashkil etishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) o'quv materialining asosiy qismi mustaqil ta'lim topshiriqlari o'rganish va o'rgatish uchun taqdim etiladi; 2) mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlash uchun maxsus didaktik materiallar yaratish; 3) alohida fanlarni individual o'rganish tartibi va individual o'rganish jadvali, o'quv materialini shaxsiy sur'atda o'rganish; 4) o'qituvchining vazifalarini o'zgartirish (tashkil etish, boshqarish, maslahat berish, nazorat qilish); 5) talabani holatini o'zgartirish (o'quv materialini ustida ishlash rejimida tashabbuskorlik, o'z ishini mustaqil rejalashtirish, rejalashtirilgan individual rejani amalga oshirish uchun javobgarlik va boshqalar).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vigotskiy L.S. *Pedagogicheskaya psixologiya* / Pod red. V.V. Davidova, – M.: Pedagogika, 1991. – 480s. 273.
2. Djon Dyui. *Obshestvo i yego problemi John Dewey. The Public and its Problems.* Denver, 1927. / Dj. Dyui. *Obshestvo i yego problemi.* — Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg, A. B. Tolstov, Ye. N. Kosilova. — M., 2002. 275.
3. Lerner I.Ya. *Didakticheski osnovi metodov obucheniya.* – M.: Pedagogika, 1981. – 186s. 283.
4. L.Zaripov *Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy asoslari. "Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuv: muammo va yechimlar"* mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi. – Termiz, 2023
5. O.Qo'ysinov "Uzluksiz ta'limda uzviylikni ta'minlash hamda xalqaro tadqiqotlar asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish", «Ta'limdagi xalqaro tadqiqotlarning yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'zni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 1-tom. Toshkent. 2022 yil.
6. Axmedova M.E. *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.* Darslik–T., 2023. 5-b. (380)
7. Axmedova M.E. *Modul kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari.* Monografiya. Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi. 2022, 115 b.

FUNDAMENTAL NAZARIY BILIMLARNI OSHIRUVCHI FANLAR UCHUN MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI TUZISH USULLARI

Smetova Jumabiyke Hamidullayevna

“Pedagogika” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. Maqolada fundamental nazariy bilimlarni oshiruvchi fanlar uchun mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish usullari va fundamental nazariy fanlar, ilm-fan va texnologiyaning asosiy tamoyillarini o'rgatish orqali, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va ilmiy izlanishlar olib borishga doir fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogika, oliy ta'lim, tizim, fundamental nazariy fanlar, mustaqil ta'lim, topshiriqlar tuzish, didaktika, metodika, kompetentsiya metodlar, motivatsiya.

МЕТОДИКА СОСТАВЛЕНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ЗАДАНИЙ ПО ПРЕДМЕТАМ, СОВЕРШЕНСТВУЮЩИМ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ЗНАНИЯ

Сметова Джумабийке Хамидуллаевна

Старший преподаватель кафедры «Педагогика»

Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация. В статье описаны методы создания самостоятельных учебных заданий по предметам, повышающие фундаментальные теоретические знания, а также идеи о том, как заставить учащихся мыслить логически, анализировать и проводить научные исследования путем обучения основным принципам фундаментальных теоретических наук, науки и техники.

Ключевые слова: педагогика, высшее образование, система, фундаментальные теоретические науки, самостоятельное образование, создание заданий, дидактика, методология, компетентность, методы, мотивация.

METHODOLOGY FOR COMPLETING INDEPENDENT TASKS IN SUBJECTS THAT IMPROVE FUNDAMENTAL THEORETICAL KNOWLEDGE

Smetova Dzhumabiyke Khamidullaevna

Senior Lecturer at the Department of Pedagogy

Tashkent University of Applied Sciences

Abstract. The article describes the methods of creating independent educational tasks for subjects that increase fundamental theoretical knowledge and the ideas on how to make students think logically, analyze and conduct scientific research by teaching the basic principles of fundamental theoretical sciences, science and technology.

Key words: pedagogy, higher education, system, fundamental theoretical sciences, independent education, assignment creation, didactics, methodology, competence, methods, motivation.

Fundamental nazariy fanlar, ilm-fan va texnologiyaning asosiy tamoyillarini o'rgatish bilan birga, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va ilmiy izlanishlar olib borishga tayyorlaydi. Ushbu fanlarda mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlab, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini oshiradi.

Maqolaning maqsadi fundamental nazariy bilimlarni oshiruvchi fanlar uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarini tuzishning samarali usullarini tahlil qilishdir. Shuningdek, bunday topshiriqlarning o'quv jarayonidagi o'rni, ahamiyati va ularni tashkil etish metodikasini ko'rib chiqishdir.

Maqolada fundamental nazariy bilimlarni oshiruvchi fanlar uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarini tuzish usullarini o'rganish uchun metodik yondashuvlar, pedagogik va psixologik aspektlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar ishlatildi:

Nazariy tahlil: Fundamental fanlar, ularning ta'limdagi o'rni va metodologiyasi, shuningdek mustaqil ta'lim topshiriqlarining ahamiyatiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Amaliy tajriba: Turli ta'lim muassasalarida fundamental nazariy fanlar o'qituvchilari bilan suhbatlar va so'rovlar o'tkazildi.

Eksperiment: Mustaqil ta'lim topshiriqlari turli fanlarda qo'llanilib, ularning samaradorligi, o'quvchilarning natijalari tahlil qilindi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning fikrlash darajasi va bilim olishdagi faoliyatini baholashda aniq mezonlar belgilandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fundamental nazariy bilimlarni oshiruvchi fanlar uchun mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Asosiy natijalar quyidagicha:

Nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi: Mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilarga o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratadi. Bu metod o'quvchilarning fikrini kengaytirib, ularga nazariy bilimlarni real hayotdagi muammolar bilan bog'lashga yordam beradi.

Ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish: Mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, tahlil qilishga va yangi g'oyalar ishlab chiqishga rag'batlantiradi. Ular o'z bilimlarini amaliyotga tadbiq etishda ijodiy yondashuvni o'rganadilar.

Motivatsiya va faollik: Mustaqil ishlash orqali o'quvchilarda ta'limga bo'lgan motivatsiya oshadi, ular o'z bilimlarini mustaqil ravishda baholashni o'rganadilar. Shuningdek, o'quvchilarda mustaqillik hissi shakllanadi, bu esa kelajakda ularning ilmiy faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'qituvchilarning metodik yondashuvlari: O'qituvchilar tomonidan mustaqil ta'lim topshiriqlarini tuzishda individual yondashuvlar qo'llanildi. Bu o'quvchilarning ehtiyojlari va bilim darajasiga mos ravishda topshiriqlarni moslashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari fundamental nazariy bilimlarni oshiruvchi fanlarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanishning samarali ekanligini tasdiqladi. Bunday topshiriqlar na faqat bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarning analitik va ijodiy salohiyatini oshirishda ham katta ahamiyatga ega.

Mustaqil ta'lim ikki turda bo'ladi:

1. Talabaning bevosita o'zi tomonidan (mobil qurilmasi orqali) amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari:

1. Dars mashg'ulotiga tayyorlanish
2. Axborot izlash.
3. Forum
4. Test yechish.
5. Nazorat ishiga tayyorlanish.

2. An'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ishi: referat, kurs ishi, kurs loyihasi, amaliyot hisoboti, ilmiy tezis va maqolalar chop etish, bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy izlanuvchiga rahbarlik, tayanch doktorantga rahbarlik va h.k.

Mustaqil ish soatlarini o'tkazishga oldindan ko'rsatma berish lozim. Mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlik ishlari talaba tomonidan bajariladigan fan dasturida belgilash samarali natijalarni beradi, qanday shaklda, qancha so'zdan iborat bo'lishi, individual tarzda yoki jamoaviy va boshqalar.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari quyidagi jihatlarida o'quvchilarni rivojlantiradi:

1. Fikrni chuqurlashtirish: Mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishda erkin fikrlashni talab qiladi. Bu jarayon, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

2. Ko'nikmalarni mustahkamlash: Mustaqil ishlash o'quvchilarga ko'nikmalarni mustahkamlash imkoniyatini beradi. Nazariy bilimlarni mustaqil ravishda ishlash va baholash, o'quvchining o'z-o'zini o'rganish qobiliyatini oshiradi.

3. O'qituvchilarning roli: O'qituvchining metodik yondashuvi va topshiriqlarni tuzishdagi ishtiroki fundamental fanlarning o'qitilish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. O'qituvchilar topshiriqlarni turli darajada murakkablashtirishi, o'quvchilarga individual yondashuvlar yaratishi lozim.

Biroq, mustaqil ta'lim topshiriqlarini samarali tashkil etishda ba'zi muammolar ham mavjud. O'quvchilarning motivatsiya darajasi, vaqtni boshqarishdagi muammolar va topshiriqlarni bajarishdagi noaniqliklar o'qituvchidan qo'shimcha e'tibor talab qiladi. Shuningdek, topshiriqlarni individual ehtiyojlarga moslashtirishda ham ayrim qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilarning pedagogik ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirish zarur.

Fundamental nazariy fanlar uchun mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilarning ilmiy va amaliy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki mantiqiy, analitik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini tuzishning samarali usullari o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlab, ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan topshiriqlarni individual yondashuvda tayyorlash va samarali baholash tizimlarini joriy etish zarur. Kelajakda bunday topshiriqlarning tashkil etilishi va baholash tizimining yanada takomillashuvi fundamental fanlar o'qitilishining sifatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7 fevral. PF-4947-son.
2. Djon Dyui. Obshestvo i yego problemi John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Dj. Dyui. Obshestvo i yego problemi. —Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg, A. B. Tolstov, Ye. N. Kosilova. —M., 2002.
3. Skatkin M.N. Problemi sovremennoy didaktiki. -M.: Pedagogika, 1984. –108.
4. Rubenshteyn S.L. Problemi obshey psixologii. -M.: Pedagogika, 1976. -416 s.
5. Leontev A.N. Problemi razvitiya psixiki. –M.: Pedagogika, 1972. -576 s
6. Ponomarev Ya.A. Psixologiya tvorchestva i pedagogika, 1976. -280 s
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-tom. –T., 2004. 270 –bet
8. Bordovskaya N., Reyana A. Pedagogika. –Sankt-Peterburg, 2001. –S.32
9. M.E.Axmedova va boshqalar. Pedagogik mahorat va tibbiy pedagogikaning kasbiy kompetentligi. O'quv-uslubiy qo'llanma T.: "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi MCHJ, 2021-

62-63b.

10. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya/ Pod.red.V.V.Davidova, M.: Pedagogika, 1991-480s.

11. Markova A.K. Psixologiya usvoeniya yazika kak sredstva obsheniya -M.: Pedagogika, 1974.-239 s.

12. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... ped. fan. dokt. -T.: 2007. -315 b

MAKTAB O'QITUVCHILARIDA KASBIY STRESSLI HOLATLARDA BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLAR

Talipova Kamola Nigmatillayevna

Pedagogika-psixologiya yo'nalishi

2-kurs magistranti

Xalqaro Nordik Universiteti

Annotatsiya: maqolada o'qituvchilarning kasbiy stressga chidamliligi - bu o'z kasbining salbiy tomonlari va qiyinchiliklarini sog'liq va mehnat unumdorligiga putur yetkazmasdan samarali tarzda yengish qobiliyatidir. Bunday stressli vaziyatlarga moslashishga psixologik tayyorlik, hissiy muvozanatni saqlash va o'z ishini yaxshi davom ettirish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Bu o'qituvchilarga bosimni keltirib chiqaradi. O'qituvchilarda o'quvchilarning xatti-harakatlari, ma'muriyat talablari va ota-onalarning ta'siri kabi turli omillar tufayli ham stress va tashvish hissi kuchayishi mumkinligi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Stress, axborot, meditatsiya, psixologiya, texnologiya, salomatlik, faoliyat, ta'lim, mahorat.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ СТРЕССЕ У ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ

Талипова Камола Нигматиллаевна

Педагогико-психологическое направление

магистрант 2 курса

Международный университет Нордика

Аннотация: в статье устойчивость педагогов к профессиональному стрессу – это способность эффективно преодолевать негативные стороны и трудности своей профессии без ущерба для здоровья и производительности труда. Психологическая готовность адаптироваться к таким стрессовым ситуациям, сохранять эмоциональное равновесие и хорошо продолжать свою работу требуют от педагога большого мастерства. Это создает давление на учителей. Было объяснено, что учителя могут испытывать стресс и беспокойство из-за различных факторов, таких как поведение учащихся, административные требования и влияние родителей.

Ключевые слова: Стресс, информация, медитация, психология, технологии, здоровье, активность, образование, умение.

FACTORS FOR FORMING STABILITY IN PROFESSIONAL STRESS IN SCHOOL TEACHERS

Talipova Kamola Nigmatillaevna

Pedagogical-psychological direction

2nd year master's student

Nordica International University

Abstract: in the article, teachers' resistance to professional stress is the ability to effectively overcome the negative aspects and difficulties of their profession without compromising their health and productivity. Psychological readiness to adapt to such stressful situations, maintain emotional balance and continue their work well require great skill from the teacher. This creates pressure on teachers. It was explained that teachers may

experience stress and anxiety due to various factors such as student behavior, administrative demands, and parental influence.

Key words: Stress, information, meditation, psychology, technology, health, activity, education, skill.

Maktab o'qituvchisi kasbi jamiyatda juda muhim kasb hisoblanadi, chunki u nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning qadriyatlarini va dunyoqarashining asosiy shakllantiruvchisidir. O'qituvchilar oldida nafaqat akademik bilimlarni, balki axloqiy qadriyatlarni, ijtimoiy ko'nikmalarni va o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish vazifasi turadi. Ular o'quvchilarning hissiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan namunalar, mu'rabiylardir. Texnologik taraqqiyot va ijtimoiy muammolar ta'sirida ta'lim muhiti doimiy ravishda o'zgarib turadigan zamonaviy dunyoda o'qituvchilik kasbining ahamiyati yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan o'qituvchilar yangi o'qitish usullarini integratsiyalash va ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanishga tayyor bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, bugungi kunda talabalar ruhiy tushkunlik, tashvish va ijtimoiy izolyasiya kabi turli xil stressli vaziyatlarga duch kelishmoqda, shuning uchun o'qituvchilar ularning hissiy osoyishtaligini qo'llabquvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Nihoyat, o'qituvchilik kasbi ham ijtimoiy mavqei va moddiy ahvolidan qat'i nazar, barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash orqali ta'limdagi tengsizliklarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarning kasbiy stressga chidamliligi - bu o'z kasbining salbiy tomonlari va qiyinchiliklarini sog'liq va mehnat unumdorligiga putur yetkazmasdan samarali tarzda yengish qobiliyatidir. Bunday stressli vaziyatlarga moslashishga psixologik tayyorlik, hissiy muvozanatni saqlash va o'z ishini yaxshi davom ettirish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Bu o'qituvchilarga bosimni keltirib chiqaradi. O'qituvchilarda o'quvchilarning xatti-harakatlari, ma'muriyat talablari va ota-onalarning ta'siri kabi turli omillar tufayli ham stress va tashvish hissi kuchayishi mumkin.

Bundan tashqari, darslarga tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilar ishini baholash va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashish kabi yuqori yuklamalar o'qituvchilarni haddan tashqari charchashga olib kelishi mumkin. O'quvchilar va ularning ota-onalari bilan qiyin munosabatlar, ayniqsa, nizolar yoki ota-onalarning norozilik holatlarida stress paydo bo'ladi. Umuman olganda, o'qituvchilar kasbiy stressga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qator omillarga duch kelishadi va ular ushbu qiyinchiliklarni samarali tarzda yengish uchun yordam va resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari muhimdir. Shu sababli bu zo'riqish va asabiy buzilish uzoq vaqtli depressiyaga olib kelishi mumkin.

Bunday vaziyatda stressdan o'z vaqtida halos bo'lishni boshlash juda zarurdir. Masalan: psixologga murojat qilish, tinkani quritadigan fikrlardan voz kechish, o'zini erkin tutishga harakat qilish, zo'riqish va tashvishlardan halos bo'lish, hayotdagi qiyinchiliklarga ijobiy tomondan qarashga harakat qilish, muammolarga yopishib qolmaslik muhimdir. Chunki stress sog'liqni yo'qotishga majbur qiladi. Mutaxassislar stressli holatlarda barqarorlikni ta'minlashni bir necha usullarini taklif qilishadi

Maktab o'qituvchisi yoga va meditatsiya bilan shugullanish – bu diqqatni jamlashning klassik usuli bo'lib, u psixo-emosional stressni, aqliy va jismoniy charchoqni bartaraf etishga yordam beradi. Zamonaviy psixologiya meditatsiyaning inson hayotining barcha jabhalariga, tana salomatligini yaxshilashdan tortib, ijodiy salohiyatini oshirishgacha bo'lgan ijobiy ta'sirini tasdiqlovchi juda ko'p miqdordagi faktlarni ko'rsatishgan. Inson faoliyatining turli sohalarida meditatsiyaning eng keng imkoniyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Meditatsiya tanani davolash sohasida:

1. Stressni kamaytiradi, odamni ichki tashvish va shovqindan xalos qiladi, ichki tinchlik va hayotdan qoniqish hissinu keltiradi;

2. Yurak-qon tomir tizimi va oshqozon-ichak tizimlarining faoliyatini normallashtiradi;
3. Uyqusizlikni yengillashtiradi va tungi uyquni yaxshilaydi, uning sekin va tez fazalarini muvozanatlashtiradi. Meditatorlar kamroq uxlab qolishlari mumkin, chunki meditatsiya paytida tiklanish jarayonlari odatdagi uyquga qaraganda tezroq sodir bo'ladi;

4. Vaznni tartibga soladi;

5. Spirtli ichimliklar, chekish, giyohvand moddalar kabi psixo-emosional stimulyatorlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi;

6. Tashqi tibbiy yordamga, dori-darmonlarga va shunga mos ravishda shifokorlarga tashrif buyurishga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

- Meditatsiya shaxsiy rivojlanish sohasida:

1. Shaxsning ichki psixologik tuzilishini mustahkamlaydi;

2. O'z-o'zini hurmat qilish va boshqa odamlarning fikridan mustaqillikni oshiradi;

3. Ishonchli, xotirjam va ayni paytda optimistik munosabat va dunyoqarashni shakllantiradi;

4. Boshqalar bilan yaqinroq va ijobiy turdagi munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi, ishda va oilada munosabatlarni yaxshilaydi; hayot mazmuni va hayotiy maqsadlarni topishga hissa qo'shadi.

- Meditatsiya ta'lim sohasida:

1. Hissiyot, e'tibor, xotira, fikrlash, tasavvur kabi aqliy kognitiv jarayonlarni ijobiy rivojlantiradi, bu esa o'z navbatida o'quv materialini tezroq va chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi;

2. Ijodkorlik, original va nostandart yechimlarni yaratish qobiliyatini oshiradi;

3. Kasbiy sohada ishlash va ijodiy faoliyatda o'zini namoyon qilish istagini ortiradi.

Maktab o'qituvchisi mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlarni bajarish – bu turli mushak guruhlarini bo'shashtirish uchun maxsus mashqlar tizimidir. Ushbu treningning maqsadi salbiy hissiy qo'zg'alishning turli shakllari bilan bevosita bog'liq bo'lgan mushaklarning tonusini yengillashtirishdir: qo'rquv, tashvish, xijolat. Mushaklar tonusini kamaytirish yoki oldini olish orqali inson stressni, uyqusizlikni, migrenni yengillashtiradi, shuningdek, hissiy fonni me'yoriga keltiradi. Mushaklarni bo'shashtirish darsini boshlaganda, bu mashg'ulotlar mushaklarning kuchlanishi bilan birga keladigan stress va tashvish uchun foydali ekanligini yodda tutish kerak. Mushaklarni zaiflashtirib, odam tashvish va hayajonni sezilarli darajada kamaytirishga erishishi mumkin. Faol dam olish - bu butunlay dam olish va xotirjamlikni topish imkonini beruvchi kuchli vositadir.

Maktab o'qituvchisini jismoniy faolligini oshirish – ruhiy salomatlikka, shu jumladan stress darajasini pasaytirishga foydali ta'sir ko'rsatadi, chunki bunga erishish uchun turli omillar birgalikda ishlaydi. Dastlab, jismoniy mashqlar tanadagi endorfinlar, tabiiy kimyoviy moddalar ishlab chiqarilishiga yordam beradi, ular kayfiyatni ko'taradi va og'riq hissini kamaytiradi. Bu jarayon eyforiya tuyg'usini keltirib chiqaradi va stress darajasini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, jismoniy faoliyat adrenalin va norepinefrin kabi stress gormonlarini ham kamaytiradi, bu esa taranglik va stressni yengillashtirishga yordam beradi. Yana bir muhim jihati shundaki muntazam jismoniy faoliyat uyqu sifatini yaxshilashdir. Yaxshi uyqu, o'z navbatida, stressni yaxshiroq yengishga yordam beradi. Jismoniy mashqlar paytida chalg'ish va dam olish ham muhim rol o'ynaydi. Jismoniy mashqlar paytida inson harakatga va tanasiga e'tibor qaratishi mumkin, bu esa fikrni muammolar va stresslardan xalos qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, jismoniy faoliyat o'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonchni oshiradi, bu ham stress darajasini kamaytirishga yordam beradi. Va nihoyat, jismoniy faoliyatdan kelib chiqadigan kognitiv funksiyaning yaxshilanishi muammolarni hal qilish va stressni yanada samarali boshqarishga yordam beradi. Maktab o'qituvchilarida stressli vaziyatlarini tahlil qilishni o'rganish – qobiliyati stress darajasini pasaytirishda asosiy rol o'ynaydi. Stressning sabablarini tushunganda, uni qanday boshqarishni yaxshiroq aniqlash mumkin. Keyinchalik, tahlil

stressli vaziyatning hayotga ta'sirini real baholashga yordam beradi va haqiqatan ham mazmunli va nazorat qilinadigan narsalarga e'tiborni qaratadi. Bundan tashqari, tahlil vaziyatni va insonning unga bo'lgan munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu esa nazorat tuyg'usini va vaziyatni samarali boshqarish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, u his-tuyg'ularni faktlardan ajratishga yordam beradi, bu insonga xotirjamroq va o'ylangan holda javob berishga imkon beradi.

Maktab o'qituvchilarining ortiqcha hissiyotlardan halos bo'lishi – kyeraksiz his-tuyg'ularni bo'shatish hissi stress darajasini pasaytirish va psixologik farovonlikni yaxshilashda asosiy rol o'ynaydi va bu g'azab, alamzadalik, tashvish kabi salbiy his-tuyg'ulardan halos bo'lishga yordam beradi. Emosional stress bartaraf etilganda, odam o'zini erkin his qiladi, bu esa qulaylik va o'ziga ishonchni oshirishga yordam beradi. Keraksiz his-tuyg'ulardan xalos bo'lish jarayonida inson o'z his-tuyg'ularini ko'proq anglaydi, bu unga o'zini va uning reaksiyalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, o'zini o'zi anglashini oshiradi va uning hissiy barqarorligini yaxshilaydi. Maktab o'qituvchilari qiziqarli hobbi o'ylab topishi – sevimli mashg'ulotlaringiz bilan shug'ullanish stress darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qiziqarli mashg'ulotlarga sho'ng'ish orqali inson kundalik muammolar va tashvishlardan xalos bo'lishi mumkin. Ko'pgina sevimli mashg'ulotlar bog'dorchilik, rasm chizish yoki musiqa tinglash kabi turli xil faoliyatlar orqali ijodiy namoyon bo'lish imkoniyatini beradi. Tabiat bilan muloqot qilish kayfiyatni ko'taradi. Xobbi bilan shug'ullanayotganda maqsadlar qo'yish va ularga erishish, bundan tashqari, klublar yoki kooperativ loyihalarda ishtirok etish, boshqalar bilan muloqot qilish ham stressni kamaytirishga va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Maktab o'qituvchilarining vizualizatsiyasi - insonning ichki dunyosini ancha boyitadi, uning ijodkorligi va empatiya qobiliyatini oshiradi, intuisiyasini charxlaydi. Bizda o'zimiz, atrofimizdagi olam va undagi odamlar haqida to'g'ri tasavvurlar bor va biz o'zimizni bu turli g'oyalar voqelikni, ularning asl mohiyatini to'g'ri aks ettirgandek tutamiz. Istalgan natija haqida aniq tasavvurga ega bo'lish ijobiy fikrlashga olib keladi. Inson kuch va mehnat qilish zaruratidan umuman xalos bo'lmaydi, lekin bu harakatlar uni maqsad sari yetaklash uchun sarflanadi. Bunday o'z-o'zini tartibga solish mashg'ulotlari insonga o'zining yangi qiyofasini - kuchli, chiroyli, mehribon va sevimli, iste'dodli va omadli insonni yaratishga yordam beradi. Yana shuni ta'kidlash joizki jahonning ilg'or tibbiyoti taklif etayotgan doridarmonsiz davolanishning bir necha usullaridan foydalanish. Masalan: - Qur'on tilovat qilish, besh vaxt namoz o'qish, ro'za tutish, halol taomlar bilan ovqatlanish, ko'p ovqat yeb qo'yishdan tiyilish, salomatlik uchun zararli bo'lgan odatlardan voz kechish, stres holatidan vaqtida chiqib ketish uni surunkali shaklga o'tib ketishini oldini olish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: - kuniga kamida 8 soat to'yib uxlash - charchaydigan ish qilgandan so'ng miriqib dam olish - toza havoda sayr qilish - asablarni buzadigan ishdan so'ng, farzandlar bilan parkda sayr qilish, turli hil sport o'yinlarini o'ynash va boshqalar - basseynida suzish - hovlida ishlash (yer chopish, ekin ekish, mevali va manzarali daraxtlar o'rnatish, gullarni parvarish qilish va boshqalar) - san'atning bir qancha turlari bilan shug'ullanish (muzika tinglash, qushiq aytish, raqsga tushish, turli ohanglardan zavq olish,).

Bundan ming yillar avval ham odamlar musiqa terapiyadan foydalangan. Vatandoshimiz mashhur tabib Abu Ali ibn Sino asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarni turli ohanglar bilan davolagan. Antik davrning buyuk namoyondalari: Pifagor, Arastu, Aflotun, kuyni inson tanasi va ruhiyatiga ijobiy ta'sirini o'rganishgan, shu bois asablari charchagan bemorlarga hotirjam qiluvchi kuylarni tinglashni tavsiya qilishgan. Bugungi kunda davolashning bu usuli dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ommalashgan. Musiqa terapiya yordamida kuchli stress, yurak hastalıkları, ko'krak bezi saratoni, qon aylanishi bilan bog'liq kasalliklarda minglab bemorlar davo topishmoqda. Musiqa terapiyaning ushbu turi bo'yicha ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Bu muolajalar stressdagi bemorlarga ijobiy

ta'sir ko'rsatgani tasdiqlangan. Shuningdek maktab o'qituvchilarida stressga chidamlilikning shakllanishi turli omillarga bog'liq, jumladan: Psixologik trening: Bardoshlilik ta'limi va treningi o'qituvchilarga stressni samarali boshqarish uchun psixologik ko'nikmalar va strategiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Qo'llab-quvvatlash va murabbiylik: Hamkasblar va maktab ma'muriyatining yordami stressga chidamlilikni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Mentorlar qimmatli maslahatlar berishlari va qiyin vaziyatlarni hal qilishda yordam berishlari mumkin.

O'z-o'zini anglash va mulohaza yuritish: O'qituvchilar o'z-o'zini anglash va mulohaza yuritish orqali chidamlilikni rivojlantirishi mumkin. Ular stressli vaziyatlarga o'zlarining reaksiyalarini bilishlari, fikrlari va his-tuyg'ularini tahlil qilishlari va ularni samarali boshqarish yo'llarini izlashlari mumkin. Haqiqiy (realistik) tahminlarni o'rnatish: O'qituvchi ishining har bir jihatini nazorat qilishning iloji yo'qligini va barcha vaziyatlar ideal bo'lmasligini tushunish o'qituvchilarga stress darajasini kamaytirishga yordam beradi. Moslashuvchanlik: Moslashuvchan fikrlash va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan o'qituvchilar ko'pincha stressni yaxshiroq engishadi. Ular yangi sharoitlarga tezda moslasha oladilar va muammolarga samarali yechim topadilar. O'z-o'zini parvarish qilish: O'qituvchilar o'zlarining jismoniy va hissiy holatlariga e'tibor berishlari muhimdir. Sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar va yetarli dam olish va dam olish vaqti stress darajasini kamaytirishga va umumiy farovonlik tuyg'usini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, stressga chidamlilik ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchining kasbiy o'sishiga yordam beradi.

Maktab o'qituvchilarida stressga chidamlilikning rivojlanishi ularning kasbiy hayotidagi qiyinchiliklar va stressli vaziyatlarni samarali yengishga yordam beradigan psixologik va xulq-atvor jihatlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchilarda stressga chidamlilik ko'nikmalarini shakllantirish ularning kasbiy faoliyatining juda muhim jihati hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalar o'qituvchilarga ish va shaxsiy hayotning salbiy tomonlarini samarali yengishga yordam beradi. O'qituvchilar o'zlarining stresslarini boshqarishganda, bu ularning psixologik va hissiy farovonligini saqlashga yordam beradi va psixologik muammolarni rivojlanish xavfini kamaytiradi. Stressga chidamlilik, shuningdek, kasbiy samaradorlikni va o'rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Bunday ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchilar ko'proq qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish orqali o'z talabalariga yaxshiroq ta'lim berishlari mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бодров В.А. Психологический стресс: Развитие учения и современное состояние проблемы. – М.: Наука, 2015. – 288 с
2. Бойко В.В. Трудные характеры подростков: развитие, выявление, помощь. – СПб.: Союз, 2002. – С. 35-154
3. Бохан Т. Г. Стресс и стрессоустойчивость: опыт культурно-исторического исследования / – Томск: Изд-во «Иван Федоров», 2008.
4. Бильданова В.Р., Бисерова Г.К., Шагивалеева Г.Р. Психология стресса и методы его профилактики. Учебно-методическое пособие // Елабуга: Издательство ЕИ КФУ, 2015. – 142 с.
5. Toyirova Sh.I. Stress psixokorreksiyasi. O'quv qo'llanma. Buxoro davlat pedagogika instituti. Buxoro-2023. bet-132
6. Кутбиддинова, Р. А. Психология стресса (виды стрессовых состояний, диагностика, методы саморегуляции). Учебно- методическое пособие // – Южно-Сахалинск : СахГУ , 2019. – 124 с.

5-6-СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИ МАСАЛАСИ

Xoliqova Ra'no Musurmon qizi
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Аннотация. Ушбу мақолада 5-синф она тили машғулотида ўқув топшириқларининг назарий масалалари хусусида тўхталиб ўтилган. Бундан ташқари она тили таълимида машқ ва топшириқ тушунчаларининг мазмун ва моҳияти ва ўқув топшириқларини такомиллаштириш ва амалиётга тадбиқ этиш каби масалалар юзасидан фикрмулоҳазалар билдирилган. Олиб борилган тадқиқот натижасида машқнинг топшириқдан фарқи аниқланиб, уларнинг бажарадиган вазифаларида чегара белгиланган, ҳар бири ўз мазмун-моҳиятидан келиб чиқиб қўлланилган ва зарур нутқий кўникмалар тезроқ шаклланишининг илмий-методик асослари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: она тили дарсликлари, топшириқлар, топшириқлар методикаси, тест, нутқий малакаларни баҳолаш.

ВОПРОС УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ В РОЖДЕННОЯЗЫЧНОМ ОБРАЗОВАНИИ 5-6 КЛАССОВ

Холикова Рано Мусурмон кизи
Преподаватель кафедры педагогики
Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические вопросы проведения уроков родного языка в 5 классе. Кроме того, были высказаны мнения по таким вопросам, как содержание и сущность понятий упражнений и заданий в обучении родному языку, а также совершенствование и реализация учебных заданий. В результате проведенного исследования было определено отличие упражнения от задания, определены границы их задач, каждое из них использовалось исходя из его сущности и научно-методической основы для более быстрого формирования необходимых развитых речевых навыков.

Ключевые слова: учебники родного языка, задания, методика выполнения заданий, тест, оценка навыков говорения.

THE ISSUE OF LEARNING TASKS IN NATIVE LANGUAGE EDUCATION OF GRADES 5-6

Kholikova Rano Musurmon kizi
Lecturer at the Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

Abstract. This article focuses on the theoretical issues of the 5th grade mother tongue lessons. In addition, opinions were given on issues such as the content and essence of the concepts of exercises and assignments in mother tongue education, improvement of educational assignments and their implementation in practice. As a result of the condu-

cted research, the difference between the exercise and the assignment was determined, the limits of their tasks were defined, each of them was used based on its essence, and the scientific-methodical basis for the faster formation of the necessary speech skills was developed.

Key words: native language textbooks, assignments, methodology of assignments, test, assessment of speaking skills.

Маълумки, инсоният муайян мақсадни кўзлар экан, анашу мақсадга олиб борувчи, етказувчи воситаларни ҳам аниқлаб олади. Таълим жараёнида ҳам муайян мақсад белгиланган экан, унга олиб борувчи усуллар ва воситаларни изчил белгилаб олинади. Анашу таълим мақсадига элтувчи воситалардан бири дарсликлардир. Дарслик тушунчаси ҳам талимининг энг муҳим компонентларидан бири ҳисобланади. Бу тушунча дабир қанча илмий манбаларда муайян истилоҳий маънолар берилган. Хусусан, олим А.Баҳромов “Мақтаб дарсликларининг янги авлодини яратиш мезонлари” мақоласида замонавий дарслик ва унга қўйиладиган талаблар ҳақида тўхталар экан, унга шундай изоҳ беради: “Дарслик ўқувчиларнинг давлат таълим стандартида ва дастурда белгилаб берилган билимларни фаол ва онгли суръатда ўзлаштиришлари учун мўлжалланган асосий ўқув китоби ҳисобланади”¹. Таълим сифатини оширишда таълим берувчининг илмий салоҳияти, педагогик маҳорати, таълим олувчининг муносабати билан бир қаторда таълим воситалари ҳам муҳим аҳамиятга эга. Таълим воситалари орасида энг кўп фоудаланиладигани, шубҳасиз, дарсликлардир.

Она тилини ўрганиш жараёнида ўқувчиларда илмий дунёқараш асосларини шакллантириш масаласини ҳал қилишда мактабда она тилини ўргатишга асос бўладиган материал алоҳида қимматга эга. Материалнинг ғоявий йўналиши ва бадиий ифодалилиги ўқувчиларнинг фикрлаш фаолиятига, ҳис-туйғуларига таъсир этади, атроф-муҳит ҳақидаги билимларини кенгайтиради, тилга ва уни яратган халққа қизиқишини тарбиялайди, ўқувчиларнинг умумий тараққиёти даражасини ўстиради ва уларнинг шахсий сифатларининг, дунёқарашларининг шаклланишига таъсир кўрсатади.

Психологияга доир манбалар асосида тавсифи берилган идрок этиш хусусиятлари, бизнингча, онатили дарсларида топшириқ шартига кўра адабий материалдан муайян тил ҳодисасини аниқлашда ҳам кузатилади: ўқувчи тил ҳодисасини қидираётган пайтда идрок биринчи навбатда шунга – тил ҳодисасига қаратилиб, адабий материалнинг бадиий хусусиятлари фон сифатида иккинчи планда қабул қилинади. Топшириқ асосида ўқувчиларнинг эътибори адабий материалга, асарнинг бадиий қийматига: бадиий тасвир воситаларига, тил хусусиятларига йўналтирилганда, ушбу материаллар фигурага айланади, она тилидан янги мавзу доирасида ўрганилаётган тилҳодисалари (сўз ва гаплар, грамматик воситалар) фонга кўчиб, иккинчи планда идрок қилинади. Бошқача айтганда, машқ ва топшириқ материали сифатида бадиий асардан келтирилган мисол (алоҳида гап, бир неча гапли кичик матн, шеърий мисра ёки мисралар, шеърлар) бирданига бир неча планда (ҳам тил ҳодисаларини аниқлаш, ҳам бадиий асарни ўқиб идрок этиш ҳам бадиий маҳорат сирларини ўрганиш планида) қабул қилинмайди. Қай бирини биринчи планга олиб чиқиш зарурлиги топшириқ шартига боғлиқ бўлади. Агар матнни ифодали ўқинг, деган топшириқ берилган бўлса, у бадиий идрок этилиши керак бўлиб, фигура сифатида биринчи аснога чиқади. Башарти, матнни ўқиб, дарсда ўтилаётган бирор тилҳодисасини аниқлаш сўралган бўлса, унинг бадиий жиҳатлари фонга кўчади. Шундай бўлгач, она тили дарсларида

¹ Bahromov A., Maktab darsliklarining yangi avlodini yaratish mezonlari// Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi axborotnomasi. 2001-yil 3-4-son. –63-66-b

Ўқувчиларнинг нутқ маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш йўлида бадиий матнлар устидаги ишларни бадиий идрок жараёни билан олдинма-кейин ташкил этиш мақсадга мувофиқ².

Она тили дарсларида бадиий матнлар мазмунини бадиий идрок этиш тил ҳодисаларини аниқлаш ва таҳлил этишга доир ишлардан сўнг кўшимча топшириқ сифатида амалга оширилиши ва бадиий идрок адабий топшириққа кўчирилиши улар устида олиб бориладиган кўпи билан 5–7 дақиқага мўлжалланадиган ишларнинг дастлабки қадами саналиши керак. Бадиий идрок жараёни ишга тушган тақдирдагина матндан эстетик завқ олиш, таъсирланиш юзага чиқади, ана шу таъсирланишни таъминловчи воситаларга эътибор пайдо бўлади, диққат шуларга марказлашади. Бадиий идрок эстетик тарбия топганлик, бадиий дидга эга бўлганлик каби хислатларда намоён бўлади. Булар сўз ва сўз шакллари ишлатиш маҳорати билан танишиш, имкон қадар ушбу маҳоратни эгаллай бориш асносида ривож топади.

